2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 83 (1682), 2026-yil 28-aprel, seshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

# OLTIN VODIY YURAGIDA JO‘SH URAYOTGAN HAYOT NAFASI

**Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 27-aprel kuni ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonlari bilan tanishish uchun Farg‘ona viloyatiga tashrif buyurdi.**





Farg‘ona — oltin vodiyning yuragi! U ming yilliklar bilan bo‘ylashgan sivilizatsiya markazi. Qadim madaniyat o‘chog‘i. Bu diyorda yashagan insonlar doim hayotsevarlikda namuna bo‘lgan. Yangi hayot qurishda oldingi saflarda yurib, doim Vatan sha’nini baland ko‘targan. Shu bois, xalqimizning sevikli shoiri, O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidovning:

*Men buyuk yurt o‘g‘lidurman,*
*Men bashar farzandiman,*
*Lekin avval senga bo‘lsam,*
*Sodiq o‘g‘lon, o‘zbegim,*

degan misralari qalb qo‘ridan chiqib, yuraklarga yetib borgan edi. Ha, dovon oshib Farg‘ona sari yo‘l olishingiz hamon tog‘larga bo‘ylashgan ko‘ksingiz faxrga to‘lishi bejiz emas.

Bugun Sharq gavhari bo‘lgan viloyat yangi O‘zbekistondagi islohotlar izchilligiga munosib tarzda yangilanib bormoqda. Farg‘ona tom ma’noda mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-ma’rifiy hayotidagi tayanch nuqtalardan biriga aylanib ulgurdi. Buni Qo‘qon shahrida barpo etilayotgan zamonaviy qiyofaga ega massiv misolida ham ko‘rish mumkin.

Mamlakatimiz yetakchisi Farg‘ona viloyatiga navbatdagi tashrifini Qo‘qondagi “Yangi O‘zbekiston” massivining qurib bitkazilgan qismini ko‘zdan kechirishdan boshladi.

Ushbu massiv darvozasidan kirishingiz hamon butunlay yangi dunyoga tushib qolasiz. Ko‘z o‘ngingizda zamonaviy shaharsozlik va qadimiy me’morchilik uyg‘unligidagi shaharcha paydo bo‘ladi. Davlatimiz rahbari 2024-yilda Farg‘onaga tashrifi chog‘ida yangi massiv qurish tashabbusini ilgari surgan edi. O‘tgan qisqa muddatda bu manzilda keng ko‘lamli qurilish, bunyodkorlik ishlari bajarildi. Loyiha qiymati 1 trillion 850 milliard so‘mlik ushbu massivda 6338 xonadondan iborat 84 ta ko‘p qavatli uy joylashadi. Ahamiyatlisi, massiv hududida yashaydigan aholi barcha ehtiyojiga shu yerning o‘zida javob topadi. Xususan, massiv hududida maktab, bog‘chalar, oliygoh, biznes va savdo markazlari, avtoturargohlar hamda zamonaviy dam olish maskanlari ham bunyod etiladi. Hududdagi yashil maydon, mustahkam ildiz otgan daraxtlar, sokin musiqaga hamohang suv purkayotgan favvora, quyoshdan quvvat oladigan ko‘cha chiroqlari — bularning barchasi qalbingizga surur, ertangi kunga ishonch beradi. Beixtiyor xayolingizdan “To‘kin hayot izlab poytaxtga borish shart emas! Yangi O‘zbekistondagi islohotlar mamlakatning barcha hududida birdek o‘tkazilyapti. Yurtning istalgan joyida katta shaharlarga xos qulaylikni topish mumkin” degan o‘y o‘tadi.

Yangi massivda loyihaning birinchi bosqichi yakunlandi: 10 qavatli 56 ta uy qurib bitkazildi. Foydalanishga topshirilgan ushbu binolar 4394 xonadondan iborat. Muhimi, xonadonlar tayyor holatda, 35 foiz boshlang‘ich to‘lov asosida, yillik 16 foizlik stavka bilan 20 yil muddatga imtiyozli kredit asosida berilmoqda.

Prezidentimiz massivda bajarilgan ishlarni ko‘zdan kechirdi. Yangi xonadonlardan biriga kirib, yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi. Massivning ijtimoiy ahamiyatiga alohida to‘xtalib, bu yerda shakllanayotgan yangi muhit odamlarning dunyoqarashi, yashash sifati va turmush madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilishi kerakligi ta’kidlandi.

Shuningdek, farg‘onalik nuroniylar, mahalla faollari bilan samimiy suhbat bo‘ldi. Ular “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida joylarda inson manfaatlari ta’minlanayotganini e’tirof etdi. Zamonaviy ta’lim va tibbiyot muassasalari, obod mahallalar, yangi korxonalar va tadbirkorlik imkoniyatlari xalqimiz hayotida ijobiy o‘zgarishlar yasayotganidan mamnunligini bildirdi. Nuroniylar bu sa’y-harakatlar tufayli yurtda to‘kinlik, farovonlik va ijtimoiy barqarorlik mustahkamlayotganini aytib, davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi.

Darhaqiqat, mamlakatimizdagi yangilanishlarning o‘qildizi xalqni rozi qilish, insonni qadrlashdir. Viloyatdagi eng yirik va zamonaviy shaharsozlik loyihalaridan biri bo‘lgan “Yangi O‘zbekiston” massivi ana shu islohotlarning amaliy ifodasi.

*Davomi 2-betda*

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING MARG‘ILON SHAHRIDAGI “BURHONIDDIN MARG‘INONIY” ILMIY-MA’RIFIY VA TURIZM MAJMUASINING OCHILISH MAROSIMIDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, muhtaram Farg‘ona ahli!

Qadrli do‘stlar!

Bugun qadimiy va betakror Farg‘ona zaminida ulkan tarixiy voqeaga guvoh bo‘lib turibmiz. Buyuk ipak yo‘li durdonasi bo‘lgan ko‘hna Marg‘ilon shahrida sizlar bilan birga “Burhoniddin Marg‘inoniy” ilmiy-ma’rifiy va turizm majmuasining ochilish marosimida ishtirok etmoqdamiz.

Siz azizlarni, butun Farg‘ona viloyati ahlini ana shunday quvonchli voqea, katta bayram bilan chin qalbimdan samimiy tabriklayman.

Mana shunday ulug‘vor majmua barchamizga muborak bo‘lsin!

Farg‘ona eliga, butun xalqimizga ko‘p yillar davomida xizmat qilsin!

Hurmatli vatandoshlar!

Mehnatkash, oqko‘ngil va olijanob Farg‘ona ahliga bo‘lgan yuksak hurmat va ehtirom ifodasi sifatida bu zaminda katta-katta ishlarni amalga oshiryapmiz.

Shu maqsadda, avvalo, viloyatni 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi hayotga izchil tatbiq etilyapti. Jumladan, qadimiy Qo‘qon shahrini har tomonlama obod qilib, bu yerda aeroportni qayta tikladik. Marg‘ilon, boshqa shahar va tumanlar, qishloq va mahallalar qiyofasi ham tubdan o‘zgarib, ularga Yangi O‘zbekiston nafasi kirib bormoqda. Zamonaviy ishlab chiqarish majmualari, ta’lim, tibbiyot va madaniyat maskanlari, IT-parklar, “Yangi O‘zbekiston” turar joy massivlari barpo etilmoqda.

Bularning barchasi aholi uchun qulay mehnat va turmush sharoitlarini yaratish, har bir yurtdoshimizga mehr va e’tibor ko‘rsatish, inson qadrini oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Umuman, barcha soha va tarmoqlarda Farg‘ona o‘zining tajriba maktabiga ega bo‘lib borayotgani hammamizni xursand qiladi.

Ushbu hudud keyingi paytda nafaqat mamlakatimiz, balki xalqaro miqyosdagi yirik anjumanlarga ham mezbonlik qilmoqda. Qo‘qon shahrida xalqaro hunarmandchilik festivali, Rishtonda kulolchilik anjumanini o‘tkazish yaxshi an’anaga aylandi. Markaziy Osiyo mamlakatlarining hududlararo hamkorlik forumlari ham Farg‘onada muvaffaqiyatli o‘tkazilmoqda.

Sizlarga ma’lumki, so‘nggi yillarda milliy me’morchilik yechimlarini qo‘llagan holda, tarixiy va zamonaviy an’analarni mujassam etgan yirik turistik majmualar barpo etishga alohida e’tibor beryapmiz. Xususan, Samarqandda “Buyuk ipak yo‘li” va Imom Buxoriy majmualari, Xorazmda “Arda Xiva” xalqaro turizm markazi ishga tushirildi.

Yaqinda azim poytaxtimizda ochilgan, Yangi O‘zbekiston durdonasi sifatida e’tirof etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazi ham bu borada ulkan qadam bo‘ldi. Ta’kidlash kerakki, ushbu majmua ekspozitsiyasida Farg‘ona tarixiga alohida o‘rin ajratilgan. Bu maskanda to‘rtta yirik portaldan bittasi Qo‘qon portali deb ataladi, Birinchi Renessansning buyuk namoyandalari — Ahmad Farg‘oniy va Burhoniddin Marg‘inoniy bobolarimiz faoliyati atroflicha yoritilgan. Bularning barchasi — Farg‘ona viloyatiga, bu zamin farzandlariga yuksak hurmat va ehtirom ifodasi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Yana bir muhim jihati — ana shunday majmualar tufayli joriy yilning birinchi choragida O‘zbekistonga 3 millionga yaqin xorijiy sayyoh tashrif buyurdi va turizm eksporti 1,1 milliard dollardan oshdi. Bu, albatta, dastlabki natija, kelajakda uning salmog‘i yanada katta bo‘ladi deb ishonaman.

Qadrli farg‘onalik yurtdoshlarim!

Ma’lumki, bu so‘lim diyordan yetishib chiqqan, ma’naviy hayotimizda o‘chmas iz qoldirgan Uvaysiy, Nodira, Anbar otin, Dilshod Barno, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Charxiy, Sobir Abdulla kabi shoir va adiblar nomlari xalqimiz o‘rtasida ma’lum va mashhur.

Shuningdek, Aziz Qayumov, Erkin Vohidov, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Oxunjon Hakimov, Umarali Normatov, Enaxon Siddiqova, Anvar Obidjon singari olimlar, shoir va adiblar yaratgan asarlar ham xalqimizning ma’naviy mulkiga aylangan.

O‘zbek san’ati va madaniyati ravnaqiga beqiyos hissa qo‘shgan Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, Muhiddin Qoriyoqubov, Tamaraxonim, Halima Nosirova, Mukarrama Turg‘unboyeva, Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov, Tavakkal Qodirov, Saodat Qobulova, Berta Davidova, Murodjon Ahmedov, Nabi Rahimov, Hamza Umarov singari ulug‘ san’atkorlar bilan butun xalqimiz faxrlanadi.

Bugungi davramizda Abduhoshim Ismoilov, Abdulahad Abdurashidov, Qilichbek Tojiyev kabi ustoz san’atkorlar bilan birga o‘nlab iste’dodli yoshlarni ko‘rib turganimdan xursandman. Bu — Farg‘ona zaminida avlodlar o‘rtasidagi an’analar davom etayotganidan dalolatdir. Bugun ularning san’atidan bahramand bo‘lish ham biz uchun katta bayramdir.

Chindan ham, bizning qanday buyuk san’atimiz, o‘zining mahorat maktabiga ega bo‘lgan san’atkorlarimiz bor!

Shu o‘rinda sizlarga bir yangilikni yetkazmoqchiman.

Biz san’at ahlining mehnati va iste’dodini qadrlash, ijodiy asarlarini kelajak avlodlarga yetkazish bo‘yicha katta ishlarni reja qilyapmiz. Elimiz suygan mashhur hofizimiz Sherali Jo‘rayev, o‘zbek estrada san’ati yulduzi Farrux Zokirovning alohida maktablarini tashkil etdik. Ushbu an’anani davom ettirib, farg‘onalik ustoz san’atkorlarning ham mahorat maktablarini ochamiz.

Bundan tashqari, ma’naviyat va ma’rifat, madaniyat va san’at vakillari bilan katta muloqot o‘tkazamiz. Ushbu muloqotda soha xodimlarini qo‘llab-quvvatlash, ularga qo‘shimcha sharoitlar yaratish bo‘yicha yangi tashabbuslarni ilgari suramiz.

Aziz do‘stlar!

Xalqimizda “To‘yga to‘yona bilan” degan yaxshi gap bor. Farg‘onaga bu safar ham yangi-yangi tashabbuslar, katta-katta loyihalar bilan keldim. Maqsad — viloyat rivojini yangi bosqichga olib chiqish, uni barcha sohalarda namunali hududga aylantirishdan iborat. Bugun ochilayotgan “Burhoniddin Marg‘inoniy” ilmiy-ma’rifiy va turizm majmuasi shu yo‘lda, hech shubhasiz, yangi davrni boshlab beradi.

Milliy me’morchilik an’analari asosida bunyod etilgan, 35 gektar maydonni egallagan betakror majmua Islom huquqshunosligi instituti, maqom teatri, ochiq amfiteatr, o‘lkashunoslik muzeyi, adib va san’atkorlar xiyoboni, hunarmandlar markazi, mehmonxona va servis shoxobchalari singari ko‘plab bino va inshootlarni o‘z ichiga oladi. Bularning barchasi, avvalo, Marg‘inoniy bobomizning boy ilmiy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish, hududning qadimiy hunarmandchilik an’analarini asrab-avaylash, ziyorat turizmini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ishonchim komil, Yangi O‘zbekiston mo‘jizalari qatoridan munosib o‘rin egallaydigan bu muhtasham obida Farg‘ona viloyatining tashrif qog‘ozlaridan biriga aylanadi.

Bugun biz orzu qilayotgan yangi Buxoriy, Termiziy, Farg‘oniy, Xorazmiy va Marg‘inoniylar avlodi qayerdan yetishib chiqadi? Albatta, ular mana shunday ma’rifat, ilm va ziyo maskanlarida tarbiya topadi.

Shu ma’noda, sizlar bilan birga kelajakka xizmat qiladigan juda katta ezgu ishni amalga oshirdik, desak, har tomonlama to‘g‘ri bo‘ladi.

Biz ushbu majmuani aynan Marg‘ilon shahrida barpo etganimiz zamirida juda chuqur tarixiy va hayotiy haqiqat mujassam. Bu tabarruk shahar ko‘plab ilm va ma’rifat egalarini voyaga yetkazgan. Tarixiy manbalarda aytilishicha, mazkur qutlug‘ maskan **“Ma’rifat ahlining vatani”** degan yuksak sharafga sazovor bo‘lgan.

Biz ana shunday qudratli ma’naviy merosimizga tayanib, Marg‘ilon, butun Farg‘ona tarixining shon-sharaf kitobiga yangi sahifalar bitmoqdamiz. Bu bilan har qancha faxrlansak, g‘ururlansak arziydi.

Fursatdan foydalanib, majmuani barpo etishda ishtirok etgan olim va loyihachilarga, muhandis va quruvchilarga, ishchi va xizmatchilarga, ushbu olijanob ishga hissa qo‘shgan barcha saxovatli insonlarga samimiy minnatdorlik izhor etaman.

Ezgu ishlarimizda buyuk ajdodlarimizning ruhlari hamisha qo‘llab-quvvatlasin!

Yangi O‘zbekiston, Yangi Farg‘ona ravnaqi va shuhrati yanada ziyoda bo‘lsin!

# “LAZGI” III XALQARO RAQS FESTIVALI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli festival qatnashchilari!

Muhtaram mehmonlar!

Xonimlar va janoblar, san’at muxlislari!

Siz, azizlarni Jayhun sohilida, Sharq gavhari bo‘lmish ko‘hna Xiva shahrida o‘tkazilayotgan musiqa va san’at bayrami — “Lazgi” III xalqaro raqs festivalining ochilishi bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Fursatdan foydalanib, UNESCO, TURKSOY kabi nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar vakillariga, xorijiy davlatlarning muhtaram elchilariga, taniqli san’at arboblari, olim va mutaxassislarga, barcha ishtirokchilarga o‘zimning chuqur hurmatimni izhor etaman.

Ushbu anjumanga mezbonlik qilayotgan qadimiy va betakror Xorazm ahlini alohida qutlab, ezgu tilaklarimni bildiraman.

Mana shunday shukuhli bahor kunlarida, boqiy va bezavol “Lazgi” sadolari ostida o‘tayotgan bu go‘zal bayram barchamizga muborak bo‘lsin!

Qadrli anjuman ishtirokchilari!

Uch ming yildan ziyod shonli tarix va madaniyatga ega bo‘lgan xalqimiz qalbini, uning nafis tuyg‘ularini hayratlanarli darajada nozik harakatlar orqali ifoda etadigan noyob san’at durdonasi — “Lazgi” nomi bilan ataladigan xalqaro raqs festivali turli elu elatlar o‘rtasida samarali madaniy muloqot maydoniga aylanib borayotgani barchamizni albatta xursand qiladi.

“Lazgi” ezgulik va go‘zallik, tinchlik va do‘stlik g‘oyalarini asrlar davomida tarannum etib kelayotgan, Xivaning muazzam minoralari kabi yuksaklik va ulug‘vorlik timsoli bo‘lgan mumtoz musiqiy obidadir.

Aynan ana shunday benazir xususiyatlariga ko‘ra, mazkur nodir asar 2019-yilda UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatidan munosib joy egalladi va xalqaro miqyosda tobora yuksak qadr-qimmat kasb etib bormoqda.

Keyingi yillarda O‘zbekiston Milliy baleti guruhi tomonidan “Lazgi. Muhabbat va qalb raqsi” baleti jahondagi nufuzli sahnalarda muvaffaqiyatli namoyish etib kelinayotgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Hozirgi vaqtda Yangi O‘zbekistonda madaniyat va san’at rivojiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Xususan, milliy raqs san’atini yuksaltirish, sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, xoreografiya sohasida zamonaviy ta’lim tizimi yo‘lga qo‘yilgani, mashhur “Bahor” ansambli faoliyati qayta tiklangani, “Lazgi” ansambli va boshqa ijodiy jamoalar qo‘llab-quvvatlanayotganini ta’kidlash lozim.

“Lazgi” xalqaro raqs festivali mamlakatimizning madaniy diplomatiyasida muhim o‘rin tutadigan strategik platformadir. Ushbu anjuman xalqaro madaniy brend sifatida shakllanib, uning geografiyasi va ishtirokchilarining soni yil sayin ortib borayotgani, bugungi festivalda dunyoning o‘nlab mamlakatlaridan yuzlab san’atkorlar, raqs jamoalari, olim va ekspertlar ishtirok etayotgani diqqatga sazovordir.

Biz yoshlar o‘rtasida mumtoz san’atimizga qiziqishni yanada oshirish, ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishda “Lazgi” raqsidan mahorat va tajriba maktabi sifatida foydalanishni davom ettiramiz.

Ana shunday ezgu maqsadlarga xizmat qilayotgan xalqaro festivalning nufuzi kelgusida yanada yuksalib, u jahon madaniy hayotida munosib o‘rin egallaydi deb ishonaman.

Sizlarni bugungi san’at va madaniyat bayrami bilan yana bir bor qutlar ekanman, barchangizga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt-saodat, san’at olamida yangi yutuq va zafarlar, anjuman ishiga esa muvaffaqiyatlar tilayman.

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

**Joriy yilning birinchi choragida O‘zbekistonga 3 millionga yaqin xorijiy sayyoh tashrif buyurdi, turizm eksporti 1,1 milliard dollardan oshdi.**

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 28-aprel, 83-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

# OLTIN VODIY YURAGIDA JO‘SH URAYOTGAN HAYOT NAFASI

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz shu yerning o‘zida “Yangi O‘zbekiston” massivining ikkinchi bosqichi va Qo‘qon shahrini rivojlantirish bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi.

Xalqimiz azaldan yangi yo‘l qurish, insonlar uzog‘ini yaqin, og‘irini yengil qilishni eng ezgu amal deb bilgan. Yurtimizdagi o‘zgarishlar yangi massiv bunyodkorligiga o‘xshaydi. Massiv zamonaviy talablardan kelib chiqib, milliy me’morchilik asosida loyihalashtirilgan. Yangi O‘zbekistondagi o‘zgarishlar ham qadim qadriyatlar asosida, davr nafasiga mos shaklda kechyapti. Vodiy viloyatlarini o‘zaro bog‘lovchi yangi yo‘nalish bo‘yicha qatnovga qo‘yiladigan elektropoyezd ham fikrimiz tasdig‘idir.

Prezidentimiz tashrifi chog‘ida xalqimiz uchun yana bir quvonchli voqea sodir bo‘ldi. Farg‘ona vodiysida Qo‘qon, Namangan, Andijon va Marg‘ilon shaharlarini bog‘laydigan yangi elektropoyezd qatnovi yo‘lga qo‘yildi.

> **Xalqimiz azaldan yangi yo‘l qurish, insonlar uzog‘ini yaqin, og‘irini yengil qilishni eng ezgu amal deb bilgan. Yurtimizdagi o‘zgarishlar yangi massiv bunyodkorligiga o‘xshaydi. Massiv zamonaviy talablardan kelib chiqib, milliy me’morchilik asosida loyihalashtirilgan. Yangi O‘zbekistondagi o‘zgarishlar ham qadim qadriyatlar asosida, davr nafasiga mos shaklda kechyapti. Vodiy viloyatlarini o‘zaro bog‘lovchi yangi yo‘nalish bo‘yicha qatnovga qo‘yiladigan elektropoyezd ham fikrimiz tasdig‘idir.**

Mamlakatimiz yetakchisi jamoatchilik vakillari bilan birga yangi yo‘nalishdagi poyezdda Qo‘qondan Marg‘ilonga bordi.

O‘zbekistonda aholiga qulay, xavfsiz va arzon transport xizmatlarini taqdim etish borasida ham qator ishlar qilinmoqda. Shu orqali transport qatnovi yaxshilanib, yo‘lovchi tashish hajmi oshib boryapti. Prezidentimizning 2025-yil 27-dekabrdagi “2030-yilga qadar temir yo‘l transportida mahalliy yo‘nalishlarda yo‘lovchi tashish ko‘rsatkichlarini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu jarayonda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Yangi yo‘nalishdagi elektropoyezd qatnovi ana shunday ezgu ishlardan.

Uzunligi 324 kilometr bo‘lgan ushbu yo‘nalishda kuniga 1500, yiliga esa taxminan 600 ming yo‘lovchini tashish imkoniyati yaratilmoqda. Chipta narxi 15 ming so‘m etib belgilangan. Ushbu poyezdni ko‘zdan kechirar ekansiz, tezkor, qulay, xavfsiz va yuqori darajada xizmat ko‘rsatishni o‘zida mujassam etganiga amin bo‘lasiz.

E’tiborlisi, poyezd to‘laligicha zamonaviy talablarga javob beradi. Olti vagondan iborat poyezdda jami 586 ta o‘rin bor. Ushbu temir tulpor soatiga 120 kilometrgacha tezlikda harakatlana oladi. Vagon ichida iqlim nazorati, salondagi havoni tozalash va isitish tizimlari mavjud. Yumshoq o‘rindiqlar, gadjetlar uchun USB portlar va bepul Wi-Fi kabilar yo‘lovchilarga qulaylik yaratadi.

Ushbu poyezdda “ijtimoiy davlat” tamoyili ham o‘z aksini topgan. Xususan, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun maxsus ko‘targichlar, keng joylar va moslashtirilgan umumiy foydalanish xonalari bor. Bundan tashqari, velosipedlarni tashish uchun mahkamlagichlar va ma’lumot beradigan elektron tablolar o‘rnatilgan. Temir tulporda xavfsizlikka ham alohida e’tibor berilgan. Vagonlar to‘liq videokuzatuv va zarba kuchini kamaytiruvchi kresh-tizim bilan himoyalangan. Bularning barchasi tezkorlik, xavfsizlik va yuqori sifatli xizmatni ta’minlaydi.

Davlatimiz rahbari Quvasoy shahridagi “Crown Ceramic” qo‘shma korxonasida keramik granit plitalar ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishdi.

Yurtimizda sanoatni rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Jumladan, mahalliy xomashyo asosida import o‘rnini bosadigan, jahon bozorida sotishga qulay mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga alohida e’tibor berilyapti. O‘tgan yili keramik plita ishlab chiqaradigan 47 ta korxona 47,2 million kvadrat metr mahsulot ishlab chiqardi. Natijada ichki talab 128,6 foiz qoplandi.

Quvasoy shahrida “Crown Ceramic” qo‘shma korxonasi 2025-yili tashkil etilgan. Loyihaga ko‘ra, korxona yiliga 8 million kvadrat metr keramik granit plita ishlab chiqarish quvvatiga ega. Bu 1 trillion so‘mlik tayyor mahsulot degani. Natijada 665 milliard so‘mlik qo‘shilgan qiymat yaratilib, 35 million dollarlik mahsulot eksport qilish mumkin.

Korxona ishlab chiqarish jarayonida 97 foiz mahalliy xomashyodan foydalanadi. Uning asosiy qismi Quvasoydagi konlardan, shuningdek, Toshkent viloyatining Angren hududidan olib kelinadi. Ishlab chiqarish jarayonida bir kunda 600 tonna saralangan tosh, 100 tonna qizil kaolin va 100 tonna kulrang kaolin ishlatiladi. Muhimi, korxona Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa bozorlarida kam uchraydigan yirik formatdagi eksportbop keramik granit plitalar ishlab chiqaradi. Olti xil o‘lchamdagi mahsulot bozorga yo‘naltiriladi.

Zavodda oddiy soy toshidan yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot tayyorlanmoqda. Dala shpati ishlab chiqarish, kaolin tarkibidagi ko‘mirni tozalash jarayonlari yo‘lga qo‘yilgan. Bu yuqori sifatli keramik granit ishlab chiqarishda juda muhim.

Jarayon to‘liq raqamlashtirilgan. Korxonada energiya tejamkor uskunalar o‘rnatilgan. Zamonaviy texnologiyalar hisobiga xomashyo tayyorlashda elektr energiyasi sarfi 20 foizgacha kamaygan. Kunduzgi ish jarayonida tabiiy yorug‘likdan foydalaniladi. Zavodlarga zamonaviy chang yutish moslamalari va filtrlar o‘rnatilgan. Ya’ni ekologik talablarga javob beradi. Bundan tashqari, ishlab chiqarishda to‘plangan yomg‘ir suvidan foydalaniladi. Ishlatilgan suv yopiq zanjir asosida tozalanib, ishlab chiqarishga qayta yo‘naltiriladi.

Bu yerda ishlab chiqarilayotgan keramik plitalar sifati va texnik ko‘rsatkichlari bo‘yicha Italiya, Ispaniya va Xitoy mahsulotlari bilan raqobatlasha oladi. Joriy yil yanvar-mart oylarida korxona Qirg‘iziston va Tojikistonga 400 ming dollarlik 80 ming kvadrat metr mahsulot yetkazib berdi. Eksport geografiyasini kengaytirish maqsadida Qozog‘iston, Rossiya va Yevropa davlatlari bilan shartnomalar imzolash choralari ko‘rilmoqda.

Korxonada hozir import qilinadigan glazur mahsulotlarini mahalliylashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy ishlar ham bajarilmoqda. Qiymati 20 million dollar bo‘lgan, yiliga 50 ming tonna glazur ishlab chiqarish quvvatiga ega yangi loyiha 2026-yil sentabrda ishga tushiriladi. Natijada yana 100 ta ish o‘rni ochilishi, qo‘shimcha 10 million dollarlik mahsulot eksport qilinishi, sirlangan




mahsulotlarga ehtiyojning 85 foizini korxonaning ichki imkoniyatlari hisobidan qoplash rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari korxonada mahsulot ishlab chiqarish va saqlash jarayonlari, joriy etilgan texnologiyalar hamda eksport rejalari bilan tanishdi. Bunday qo‘shma korxonalar mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish orqali hudud iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlandi.

Mamlakatimiz yetakchisi navbatdagi manzilda “Quva Agrostar” korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Yurtimizda agrotarmoq imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanishga katta e’tibor berilyapti. Bu mahsulot yetishtirish bilan birga qo‘shilgan qiymat yaratish, eksportni ko‘paytirishda ham qo‘l kelmoqda. Boshlangan ishlar tufayli dehqonlar ham ilmiy yondashuv asosida ishlay boshladi. Qisqasi, dehqonchilik ham bilim, ko‘nikma va izlanishlar mahsuli ekanini anglab yetdik. Prezidentimiz qaroriga muvofiq, 21 tumanda ixtisoslashgan agromajmualar tashkil etildi. Ushbu tizim agrotarmoqda yangi davrni boshlab berdi. Tizim yerning holatini ilmiy tahlil qilib, urug‘ qadashdan mahsulotni eksport qilishgacha bo‘lgan jarayonni qamrab oladi. Muhimi, jarayon to‘liq zamonaviy bilim va ko‘nikmalar asosiga qurilgan. Xorijlik mutaxassislar bilan hamkorlik qilish imkoniyati ham bor.

“Quva Agrostar” zamonaviy korxonasida 12 turdagi mahsulot kooperatsiya asosida yetishtiriladi. U ekishdan boshlab, saralash, qadoqlash, qayta ishlash va eksport qilishgacha bo‘lgan to‘liq zanjirni qamrab oluvchi zamonaviy agromarkazdir. Xususan, ushbu agrokompleks yiliga 5000 tonna qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, saralash, qadoqlash, qayta ishlash imkoniyatiga ega.

Korxona Italiya, Ispaniya, Germaniya va Xitoydan keltirilgan zamonaviy texnologiyalar asosida jihozlangan. Shuningdek, Global GAP, ISO 22000, Halal va HACCP kabi xalqaro sertifikatlar mahsulot sifati va milliy brendga ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu, o‘z navbatida, tayyor mahsulotni eksport qilish imkoniyatini kengaytiradi. Shu orqali tuman, viloyat iqtisodiy barqarorligiga munosib hissa qo‘shadi.

Majmua tumandagi 33 mahallada joylashgan 3000 ta xonadon va 1000 ta dehqon xo‘jaligi bilan kooperatsiya asosida faoliyat yuritadi. Bu yuzlab insonlar uchun ish o‘rni, doimiy daromad degani. Shuningdek, aholiga 10 sotix yerdan o‘rtacha 250 million so‘m daromad qilish amaliyoti o‘rgatilmoqda. Ko‘rilayotgan natija ham shunga yarasha salmoqli. Xususan, 2025-yilda Yaponiya va Janubiy Koreya kabi yangi bozorlar sari yo‘l ochildi. Joriy yilda esa 25 million dollarlik mahsulot eksport qilish rejalashtirilgan.

Shu yerning o‘zida aholiga tomorqadan samarali foydalanishni o‘rgatish va mahallalarni chuqur ixtisoslashtirish borasida bajarilayotgan ishlar taqdimoti o‘tkazildi.

Tomorqa shunchaki qo‘shimcha daromad manbai emas, balki oilaviy tadbirkorlikning samarali yo‘nalishiga aylanishi muhim ekani ta’kidlandi. Aholiga urug‘ tanlash, agrotexnik tadbirlarni to‘g‘ri bajarish, sifatli hosil olish, mahsulotni bozor talabiga mos holda tayyorlash va eksport standartlariga muvofiq qadoqlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar berish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Davlatimiz rahbari “Quva Agrostar” erishgan natijalarni yuqori baholab, yerdan samarali foydalanish, mahsulotni chuqur qayta ishlash va eksportga yo‘naltirish orqali yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish, eng muhimi, dehqon va tomorqa egalari daromadini sezilarli darajada oshirish muhim ekanini ta’kidladi. Shu maqsadda Farg‘ona viloyatida 50 ming gektar yerda tajriba tariqasida ilg‘or agrotexnologiyalarga asoslangan qishloq xo‘jaligi tizimi joriy etilishi belgilandi.

Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etishda ulkan marra olingan. Bunga puxta reja asosidagi aniq, manzilli ishlar orqali erishish mumkin. Shu bois, mamlakatimizdagi har bir islohot bilim va zamonaviy texnologiyalar asosiga qurilmoqda. Zero, barcha davrlarda bilim najot kemasi bo‘lgan. Bu o‘zgarmas qoida asrimizga kelib, yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Quva tumanidagi agrovoltaika usulida tashkil etilgan uzumchilik bog‘i, chorvachilik hamda baliqchilik kompleksi aynan shunday talablarga javob beradigan loyihalardan. Navbatdagi manzil mazkur qishloq xo‘jaligi majmuasi bo‘ldi. Prezidentimizning “Sanoatlashgan bog‘ va tokzorlarni barpo qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq barpo etilgan majmua qishloq sharoitida minimal xarajat qilib, yuqori foyda olish imkonini beradi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, mamlakatimizda agrovoltaika yo‘nalishida 10 gigavattgacha quvvat yaratish salohiyati mavjud.

Hududda qayta tiklanuvchi energiya manbalari hamda ikki bosqichli suv tejovchi texnologiyalar o‘rnatilgan. Shu jihatdan u mamlakatimizdagi ilk agromajmuadir. Intensiv bog‘dorchilik, chorvachilik va baliqchilikni qamrab olgan kompleks 110 gektar maydonda tashkil etilgan.

Bu yerda quyosh panellari nafaqat elektr bilan ta’minlaydi, balki ekin uchun soya vazifasini ham o‘taydi. Shu orqali o‘simliklar ildizi atrofidagi namlikni saqlaydi. Bu, o‘z navbatida, suv tejamkorligiga xizmat qiladi. Ushbu ajoyib zanjir halqasi haroratni me’yorda ushlab turish orqali quyosh panelining barqaror ishlashini ta’minlaydi.

Majmuada suv tejamkorligiga qaratilgan ilg‘or texnologiyalar ham joriy etilgan. Jumladan, Avstriyaning “Bauer” kompaniyasi texnologiyasi asosida yomg‘irlatib sug‘orish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Shu tariqa suv ekin maydoniga bir me’yorda yetkaziladi. Tuproq namligi saqlanib, suv orqali berilgan o‘g‘itning ham samaradorligi oshadi. Bu, o‘z navbatida, hosildorlikka ijobiy ta’sir qiladi.

Mazkur texnologiya avval respublikadagi fermer xo‘jaliklarida sinovdan o‘tkazilgan. Natijada suv sarfi 40, o‘g‘it sarfi 35, qo‘l mehnati 90 foizga kamayishi kuzatilgan. Hosildorlik esa 25 foiz oshgan.

O‘n mingta quyosh paneli o‘rnatilgan majmuadagi yana bir qulay jihat chorvachilikda o‘z aksini topgan. Ya’ni qoramollar quyosh panellari soyasida dam oladi. Bog‘ orasidagi o‘t-o‘landan oziqlanib, yer uchun tabiiy o‘g‘it beradi. Shu tariqa bir-birini to‘ldiradigan o‘ziga xos zanjir hosil bo‘lgan. Ushbu halqa kam xarajat evaziga ko‘proq foyda olish imkoniyatini yaratadi.

Agromajmuada uzumning eksportbop “Avatar” navi ekilgan, zotdor qoramol va qo‘ylar olib kelingan. Shuningdek, intensiv usulda baliq yetishtirish yo‘lga qo‘yilgan. Loyiha natijasida 100 ta oilaning daromadi oshirilib, 350 kishining bandligi ta’minlanadi.

Endi nafaqat mamlakatimiz, balki butun mintaqa uchun noyob ushbu tajribani respublikaning 13 hududida 2000 gektar maydonda ommalashtirish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari majmua faoliyati bilan tanishar ekan, agrodronlar yordamida ekinlarni dorilash va monitoring qilish ishlarini ham ko‘zdan kechirdi.

Turizm — iqtisodiyot drayveri. Yangi O‘zbekistonda sayyohlikni rivojlantirishga keng imkoniyat yaratilmoqda. Yillar davomida foydalanilmay, samarasiz va qarovsiz yotgan joylar iqtisodiy quvvatga aylantirilyapti. Natijada aholi bandligi ta’minlanib, infratuzilmalar yangilanmoqda. Farg‘ona viloyatidagi “Karkidon” suv ombori fikrimiz tasdig‘idir. Mazkur suv ombori hududida yangi ekoturizm majmuasi barpo etildi.

Prezidentimiz hududda yaratilgan sharoitlar bilan tanishar ekan, bunday loyihalar aholi farovonligi, hudud iqtisodiyoti va mamlakatimizning sayyohlik salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidladi. Turizm mamlakatni dunyoga tanitish, yangi ish o‘rinlari ochish va xizmatlar eksportini kengaytirishning samarali yo‘nalishlaridan biri ekani qayd etildi.

Bu hudud vodiyda yozgi dam olish va ekoturizm uchun eng jozibador manzillardan biriga aylanishi kutilmoqda. Hudud salohiyatidan samarali foydalanib, ushbu manzilni turistik xabga aylantirish maqsad qilingan. Hozir “Karkidon” suv ombori hududida qiymati 635 milliard so‘mlik zamonaviy turizm majmuasi shakllanmoqda. Hududda yo‘l infratuzilmasi yaxshilanib, obodonlashtirish ishlari davom etmoqda. Majmua agro, ekstremal va ekoturizmlarni o‘zida jamlagan kompleks bo‘ladi.

Ushbu hudud avval yaydoq dala, cho‘lni eslatadigan qir va tekisliklardan iborat edi. Qizig‘i, suv sohili bo‘lgan bu kenglikda daraxt ham, o‘simliklar ham unmasdi. Hozir tomchilatib sug‘orish tizimi yaratilib, atrof ko‘kalamzorlashtirilmoqda. 508 gektardagi majmuada 45 ta shale va 57 ta zamonaviy mehmon uylari qurilgan. Bundan tashqari, agroturizm majmuasi, gulzor, lavandazor, ekobozor, sokin hudud va restoranlar tashkil qilingan. Kelgusida hududda motokross, 2 kilometrli dor yo‘li, karting va golf maydonlari tashkil etiladi.

Hududda yuzdan ortiq tadbirkorlik subyekti tashkil etiladi. Natijada 2000 ga yaqin ish o‘rni ochiladi. Yiliga 750 ming sayyohni qabul qilish evaziga 3 milliard so‘mlik byudjet tushumi va 5 million dollarlik xizmatlar eksporti ta’minlanishi kutilmoqda. Loyiha 2027-yilda to‘liq quvvatda ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari yangi mehmonxona va savdo majmualari faoliyati bilan ham tanishdi. Shu yerning o‘zida sayyohlik sohasida istiqbolda amalga oshiriladigan loyihalar taqdimot qilindi. Jumladan, Taxtako‘pir tumanida Qoratereng ko‘li, Xonobod tumanida sun’iy ko‘l, Xatirchi tumanida Ko‘ksaroy



suv ombori, Pop tumanida Arashan ko‘li, Nurobod tumanida Sobirsoy va Kattaqo‘rg‘on tumanidagi Kattaqo‘rg‘on suv omborlari atrofida ham yirik turizm majmualari barpo etiladi.

Prezidentimiz Quva tumanidagi 1-texnikumda yoshlarni zamonaviy kasblar va xorijiy tillarga o‘qitish ishlari bilan tanishdi.

Mamlakat taraqqiyotida inson kapitali doim ustuvor ahamiyat kasb etgan. Chunki kelajakni puxta bilim va davrining eng ilg‘or kasb egalari kafolatlaydi. Bu insoniyat tarixidagi hech o‘zgarmas qoidadir. Ayni sabab tufayli yurtimizda professional ta’lim tizimi isloh qilinmoqda. Ayniqsa, hududlardagi texnikumlarni amaliy bilim, innovatsiya va tadbirkorlik markazlariga aylantirishga alohida e’tibor qaratilyapti. Quva tumanidagi texnikum faoliyati ham mazkur islohotlarning amaliy ifodasidir.

Texnikum binosida zamonaviy kasblarga o‘qitish va startaplarni qo‘llab-quvvatlash markazlari tashkil etilgan. Xorijiy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda nemis va xitoy tillarini o‘qitish bilan birga logistika, qishloq xo‘jaligida dronlarni boshqarish, “aqlli” irrigatsiya, quyosh panellarini o‘rnatish va ta’mirlash kabi zamonaviy yo‘nalishlar bo‘yicha kadrlar tayyorlanadi. Bundan tashqari, dual ta’lim tizimi joriy etilib, 550 o‘quvchi nazariy bilimlarni bevosita amaliyot bilan bog‘lagan holda o‘zlashtirmoqda.

Startap markazida yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslari qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bu yerda robototexnika, SMM, mobilografiya, dizayn kabi talab yuqori yo‘nalishlar bo‘yicha ham o‘quv kurslari ochilgan.

Loyiha doirasida 200 ta yangi ish o‘rni yaratiladi. Ushbu tajribani respublikadagi yana 10 ta qishloq xo‘jaligi texnikumida joriy etish rejalashtirilgan.

Prezidentimiz kasb o‘rganayotgan yoshlar bilan suhbatlashdi.

Shundan so‘ng mamlakatimiz yetakchisi Marg‘ilon shahridagi “Burhoniddin Marg‘inoniy” ilmiy-ma’rifiy va turizm majmuasida barpo etilgan madaniyat hamda xizmat ko‘rsatish obyektlari bilan tanishdi.

Bugun mamlakatimizda turizm salohiyatidan samarali foydalanish borasida tub islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, Farg‘ona viloyatida ham bu boradagi yangilanishlar tahsinga sazovor. Buni keyingi yillarda yurtimizga xorijdan kelayotgan sayyohlar nufusi oshib borayotganida ham ko‘rish mumkin.

Prezidentimizning 2025-yil 1-apreldagi qarori bilan qadim kentda “Burhoniddin Marg‘inoniy” majmuasi barpo etildi. Ushbu majmuada milliy me’morchilik an’analari, Marg‘ilon tarixi aks etgan. Ayni paytda bunyodkorlik ishlarida sayyohlikning talablari ham hisobga olingan. Qadim shahar ichidagi ushbu mo‘jaz shaharcha 35 gektar maydonni egallagan. Majmuada sayyohlar uchun barcha qulayliklar yaratilmoqda. Bu yerda mehmonxona, karvonsaroy, savdo va xizmat ko‘rsatish binolari, hunarmandlar markazi, milliy bozor va muzeylar qurib bitkazilgan.

Majmuaning asosiy yo‘nalishlaridan biri esa buyuk alloma Burhoniddin Marg‘inoniyning boy ilmiy merosini o‘rganish va targ‘ib qilishdir. Qolaversa, shaharchada qadimiy hunarmandchilik an’analarini saqlash, ziyorat va madaniy turizmni rivojlantirish ko‘zda tutilgan.

Farg‘ona, Marg‘ilon deganda, “O‘tkan kunlar” romanini, Otabek va Kumushni eslaymiz. Majmuani bunyod etishda shu jihat ham e’tiborga olingan. U yerda “Otabek va Kumush uyi” muzeyi tashkil etilgan. Uning devorlarida “O‘tkan kunlar” romani sahnalari jonlantirilib, adabiyot va tarixni uyg‘unlashtirgan noyob muhit yaratilgan. Shuningdek, maqom teatri, shoir va rassomlar xiyoboni hamda kutubxona joy olgan.

Qiymati 1,7 trillion so‘m bo‘lgan loyihaning bosh rejasi Turkiyaning “Studio Vertebra” kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Majmua ikki bosqichda barpo etiladi. Bu yerda biznes markaz, 1500 o‘rinli masjid, mehmonxonalar, 400 ta savdo va xizmat ko‘rsatish nuqtasi, 300 o‘rinli bozor tashkil etiladi.

Davlatimiz rahbari majmua bo‘ylab yurib, bunyodkorlik ishlarini ko‘zdan kechirdi. Hunarmandchilik, badiiy va amaliy san’at ko‘rgazmalari, bozor rastalari bilan tanishdi. Jamoatchilik vakillari bilan samimiy suhbat qurdi.

Majmua to‘liq ishga tushgach, viloyatga yiliga o‘rtacha 200-250 ming nafar xorijiy sayyoh jalb etilishi kutilmoqda. Natijada 2 mingta ish o‘rni yaratiladi. Buning evaziga byudjetga 52 milliard so‘m tushum va 30 million dollarlik xizmatlar eksporti ta’minlanadi.

E’tiborlisi, “Burhoniddin Marg‘inoniy” majmuasi tajribasini Buxorodagi “Boqiy Buxoro”, Samarqanddagi Imom Moturidiy maqbarasi atrofi, Qo‘qondagi O‘rda, Namangandagi “Axsikent” yodgorligi hamda Toshkentning Eski shahar hududlarida ham keng joriy etish rejalashtirilgan.

Ushbu majmuaning tantanali ochilish marosimida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, xalqimizga samimiy tabrik va ezgu tilaklarini yo‘lladi. Farg‘ona ahlini ushbu tarixiy voqea bilan samimiy tabriklab, majmua nafaqat Marg‘ilon, balki butun vodiy ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutishini ta’kidladi.

Jumladan, keyingi yillarda viloyatni 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi izchil amalga oshirilmoqda. Qo‘qonda aeroport qayta tiklandi, Marg‘ilon va boshqa shahar-tumanlarda zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari, ta’lim, tibbiyot va madaniyat maskanlari, AT-parklar, “Yangi O‘zbekiston” turar joy massivlari barpo etilmoqda. Bu ishlar aholi uchun qulay mehnat va turmush sharoitini yaratish, inson qadrini ulug‘lash va hududlarga Yangi O‘zbekiston ruhini olib kirishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz Farg‘ona viloyati so‘nggi yillarda nafaqat mamlakatimiz, balki xalqaro miqyosdagi yirik tadbirlarga ham mezbonlik qilayotganini ta’kidladi. Qo‘qonda xalqaro hunarmandchilik festivali, Rishtonda kulolchilik anjumani o‘tkazilishi yaxshi an’anaga aylangan. Markaziy Osiyo mamlakatlarining hududlararo hamkorlik forumlari ham Farg‘onada muvaffaqiyatli tashkil etilmoqda.

So‘nggi yillarda milliy me’morchilik yechimlari asosida tarixiy va zamonaviy an’analarni uyg‘unlashtirgan yirik turizm majmualari barpo etilmoqda. Samarqandda “Buyuk ipak yo‘li” va Imom Buxoriy majmualari, Xorazmda “Arda Xiva” xalqaro turizm markazi ishga tushirildi. Toshkentda ochilgan Islom sivilizatsiyasi markazi ham bu borada ulkan qadam bo‘ldi.

Ushbu markaz ekspozitsiyasida Farg‘ona tarixiga alohida o‘rin ajratilgani, to‘rt yirik portaldan biri Qo‘qon portali deb atalgani, Birinchi Renessansning buyuk namoyandalari — Ahmad Farg‘oniy va Burhoniddin Marg‘inoniy merosi atroflicha yoritilgani qayd etildi.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish o‘z samarasini bermoqda. Joriy yilning birinchi choragida O‘zbekistonga 3 millionga yaqin xorijiy sayyoh tashrif buyurdi, turizm eksporti 1,1 milliard dollardan oshdi.

Davlatimiz rahbari Farg‘ona zaminining boy ma’naviy va madaniy merosiga alohida to‘xtaldi. Hududdan yetishib chiqqan olim va ijodkorlar xalqimiz ma’naviy xazinasiga ulkan hissa qo‘shgani ta’kidlandi.

O‘zbek san’ati va madaniyati ravnaqiga Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, Muhiddin Qoriyoqubov, Tamaraxonim, Halima Nosirova, Mukarrama Turg‘unboyeva, Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov kabi ulug‘ san’atkorlar beqiyos hissa qo‘shgani qayd etildi.

Prezidentimiz san’at ahlining mehnati va iste’dodini qadrlash, ularning ijodiy merosini kelajak avlodlarga yetkazish borasida katta ishlar rejalashtirilayotganini bildirdi. Sherali Jo‘rayev va Farrux Zokirov maktablari tashkil etilgani, kelgusida farg‘onalik ustoz san’atkorlarning ham mahorat maktablari ochilishi ma’lum qilindi.

Mamlakatimiz yetakchisi “Burhoniddin Marg‘inoniy” ilmiy-ma’rifiy va turizm majmuasi Farg‘ona rivojida yangi davrni boshlab berishini qayd etdi. Bu muhtasham obida Yangi O‘zbekiston mo‘jizalari qatoridan munosib o‘rin egallab, Farg‘ona viloyatining tashrif qog‘ozlaridan biriga aylanishiga ishonch bildirdi.

— Biz ushbu majmuani aynan Marg‘ilon shahrida barpo etganimiz zamirida juda chuqur tarixiy va hayotiy haqiqat mujassam. Bu tabarruk shahar ko‘plab ilm va ma’rifat egalarini voyaga yetkazgan. Tarixiy manbalarda aytilishicha, mazkur qutlug‘ maskan “Ma’rifat ahlining vatani” degan yuksak sharafga sazovor bo‘lgan.

Biz ana shunday qudratli ma’naviy merosimizga tayanib, Marg‘ilon, butun Farg‘ona tarixining shon-sharaf kitobiga yangi sahifalar bitmoqdamiz. Bu bilan har qancha faxrlansak, g‘ururlansak arziydi, — dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari majmuani bunyod etishda ishtirok etgan olim va loyihachilar, muhandis va quruvchilar, ishchi-xizmatchilar hamda ushbu ezgu ishga hissa qo‘shgan barcha insonlarga minnatdorlik bildirdi.

Marosim katta konsert dasturi bilan davom etdi. Folklor-etnografik jamoalar hamda san’atkorlarning chiqishlari, milliy o‘yin va askiyalar barchaga zavq-shavq ulashdi.

Prezidentimizning Farg‘ona viloyatiga tashrifi davom etmoqda.

**Boboravshan G‘OZIDDINOV,**
**Avazbek XUDOYQULOV,**
**Rasuljon KAMOLOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbirlari**

# YANGILANISHLARDAN QUVVAT, QADIM QADRIYATLARDAN ULGU OLIB YUKSALAYOTGAN SHAHAR

Shukuh

**Shunday masrur tuyg‘ular borki, ularni so‘z bilan ifodalash mushkul. Zero, u Farg‘ona ipagiday nozik, Marg‘ilon matosi kabi harir, shu zaminning mard va tanti insonlariday dilga yaqin bo‘ladi.**





> **Inson hayotidan rozi ekanini doim ham so‘z bilan izhor qilavermaydi. Chunki yaxshi tuyg‘ularimizni bayon etishga ko‘pincha qiynalamiz. Nari borsa, “Xursandman-da”, deymiz ovozimizni baralla qo‘yib. Lekin bu quvonchning aniq tasviri yo‘q degani emas. Inson xursandchiligini uning nigohidan, birgina qarashidan bilib olish mumkin.**

Mamlakatimiz yetakchisining Marg‘ilon shahriga tashrifi farg‘onaliklar qalbida ana shunday masrur tuyg‘ularni uyg‘otdi. Ularning shodiyonasi, quvonchi butun mamlakat bo‘ylab keng quloch yozdi. Bu bejiz emas, albatta. Zero, davlatimiz rahbarining galdagi tashrifi Farg‘ona viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy hayotida islohotlarning yangi davrini boshlab berdi. Buni yangi ochilgan turizm majmuasi misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

Marg‘ilon shahridagi “Burhoniddin Marg‘inoniy” ilmiy-ma’rifiy va turizm majmuasi ertaklarda aytilib, kitoblarda yozilgan afsonaviy shaharni yodga soladi. Uning tantanali ochilish marosimiga yig‘ilganlar qalbidagi faxrni bola qalbiday toza nigohlardan payqab olish mushkul emas. Katta izdihomga, bo‘lajak konsert tomoshasiga kirayotganlar navbat bilan ko‘rgan-kechirganlari haqida so‘zlaydi. “Otabek va Kumush uyi” muzeyini ko‘rdingizmi?”. “Ha, eshikdan ichkariga hatlashingiz hamon “O‘tkan kunlar”ga tushib qolganday bo‘lasiz”. “O‘ziyam har bir naqshigacha e’tibor berib, juda zo‘r qilib qurishibdi. Endi dunyoning to‘rt tomonidan turistlar oqib kelaveradi-da”.

Gap-gapga ulanib, majmua hududidagi amfiteatrga qanday kirib qolganimizni sezmaymiz. Katta izdihomda kishini o‘ziga xos salobat bosadi. Majmuaning tantanali ochilish marosimida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, nutq so‘zlar ekan, yig‘ilganlar quvonch va hayajon ila bir-biriga ko‘z tashlaydi. Bu qarashda “Eshityapsizmi, Farg‘onamiz yanada gullab, taraqqiy etadi” degan ma’no mujassam.

Marg‘ilon shahriga berilgan ulug‘ maqom — “Ma’rifat ahlining vatani” iborasi haqida to‘xtalib o‘tsak. Bu ko‘hna kent azaldan hunarmandlar, ilm-ma’rifat sohiblarining vatani bo‘lib kelgan. Yurtimizdagi qadim tamaddunlardan biri aynan shu yerda shakllangan. Buni isbotlashning juda oddiy yo‘li bor. Ya’ni shaharda qadimdan hunarmandlik rivojlangan. Masalan, birgina iroqi do‘ppining naqshlari nafaqat badiiy didning yuksak namunasi, balki o‘zida ramzlarni jamlagan madaniy meros hamdir. Bunday durdonaga asos solish uchun jamiyatda ilm-ma’rifat yuksak darajaga chiqishi, jamiyatda tinchlik, ahillik hukm surishi, xalq farovon yashashi kerak bo‘ladi.

Bugun Marg‘ilonning ana shu qadimiy quvvat, ilmiy va ma’rifiy qudrati qayta tiklanmoqda. Bunga, albatta, yurtimizdagi keng ko‘lamli islohotlar sabab. Negaki, mamlakat avval iqtisodiy yuksalishga yuz tutadi. So‘ng jamiyatda madaniy-ma’rifiy yuksalish yanada jadallashadi. Shu ma’noda, “Burhoniddin Marg‘inoniy” ilmiy-ma’rifiy va turizm majmuasining ochilish marosimi katta tantanaga aylangani bejiz emas. Yangi O‘zbekiston nafasi sabab Marg‘ilonday shaharning qadimiy qudrati qayta uyg‘ona boshladi. Farg‘onaliklar buni teran his etib, majmua ochilishini katta tantana bilan qarshi oldi. Yangilanishlarni o‘z hayoti misolida ko‘rib, ertangi kunga ishonch bilan yashayotgan insonlarga bunday bayramlar, albatta, yarashadi.

Yuqori saviyada tashkil etilgan konsert dasturi chog‘ida xalqimiz yagona vatan bo‘lib birlashayotganiga yana bir karra guvoh bo‘ldik. Tantana davomida folklor-etnografik jamoalar, san’atkorlar va iste’dodli ijrochilar chiqish qildi. Yurtimizning turli hududlariga xos surxoncha, buxorocha va qoraqalpoqcha raqslar namoyish etildi. Farg‘onaliklar ushbu chiqishlarning barchasini ko‘tarinki kayfiyat, bayramona shukuh bilan qarshi oldi.

Inson hayotidan rozi ekanini doim ham so‘z bilan izhor qilavermaydi. Chunki yaxshi tuyg‘ularimizni bayon etishga ko‘pincha qiynalamiz. Nari borsa, “Xursandman-da”, deymiz ovozimizni baralla qo‘yib. Lekin bu quvonchning aniq tasviri yo‘q degani emas. Inson xursandchiligini uning nigohidan, birgina qarashidan bilib olish mumkin. Afsonaviy shaharchaning ochilish marosimida vodiy ahlining yuz-ko‘zida ana shunday sevinch, hayotdan rozilik ifodalari aks etdi.

Tan olish kerak, iqtisodi mustahkam bo‘lgan jamiyatlar bilim olishga, hunar o‘rganib, yangi imkoniyatlar eshigini ochishga ko‘proq rag‘bat sezadi. So‘nggi yillarda milliy me’morchilik yechimlari asosida, tarixiy va zamonaviy an’analarni uyg‘unlashtirgan yirik turizm majmualari barpo etilmoqda. Samarqandda “Buyuk ipak yo‘li” va Imom Buxoriy majmualari, Xorazmda “Arda Xiva” xalqaro turizm markazi ishga tushirildi. Toshkentda ochilgan Islom sivilizatsiyasi markazi ham bu borada ulkan qadam bo‘ldi.

Bularning barchasi mamlakatimizda boshlangan yangilanishlar jarayoni to‘g‘ri va izchil davom etayotganidan dalolat. E’tiborlisi, ushbu majmualar nafaqat madaniy markaz, balki sayyohlik rivojiga hissa qo‘shadigan iqtisodiy quvvat ham hisoblanadi.

Tarix zarvarag‘iga katta harflar bilan bitilgan ushbu kunni vodiy ahli katta shodiyona bilan qarshi olgani ham bejiz emas. Axir bunday yangilanishlar mamlakat ertasiga kafolat, kelajak avlodning baxtli hayoti uchun ravon yo‘l solinayotganidan dalolatdir. Bunday sabab esa barchaga birdek quvonch ulashishi tabiiy.

“Burhoniddin Marg‘inoniy” ilmiy-ma’rifiy va turizm majmuasining tantanali ochilish marosimi so‘ngida Marg‘ilon osmonini rang-barang va yorqin mushaklar yoritdi. Ular mard va tanti, mehmondo‘st va hayotsevar farg‘onaliklarning quvonchi, yorqin orzu va intilishlarining timsoli sifatida namoyon bo‘ldi.



**Boboravshan G‘OZIDDINOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

Nuqtayi nazar

# DASTLABKI HISOB-KITOBLAR – PIROVARD NATIJA POYDEVORI

**Dunyoda kechayotgan keskinlik va noaniqliklar, davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatlar hamda logistika sohasidagi uzilishlar mamlakatlarning tashqi savdo aloqalari va iqtisodiy munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, transport yo‘laklari muammolari tufayli tashish bilan bog‘liq xarajatlarning oshib ketishi mamlakatlar iste’mol bozoridagi tovarlar narxiga ham ta’sir qildi. Bu kabi muammolar nafaqat o‘zaro ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar mavjud mamlakatlar, balki boshqa davlatlar iqtisodiyotida ham sezilmoqda.**



**Erkin GADOYEV,**
**Oliy Majlis Senatining Budjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi raisi**

Global iqtisodiyotda noaniqliklar oshib borayotganiga qaramay, islohotlar tufayli milliy iqtisodiyotimizda ijobiy natijalarga erishilmoqda. Ushbu natijalar mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilovchi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda o‘z ifodasini topgan.

Prezidentimiz shu yil 24-aprel kuni hudud va tarmoqlarda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bo‘yicha birinchi chorak yakunlari tahlili va yil yakuniga qadar ustuvor vazifalar yuzasidan bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda 2026-yilning birinchi choragida erishilgan natijalarni tanqidiy tahlil qilib, yilni muvaffaqiyatli yakunlash bo‘yicha vazifalarni belgilab berdi.

Joriy yilning birinchi choragi yakuni bo‘yicha mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot o‘sishi 8,7 foizga ta’minlangan. YIM o‘sishida iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlaridagi ijobiy natijalar samara bergan. Jumladan, sanoat tarmoqlari 8, xizmat ko‘rsatish 16,1, qishloq xo‘jaligi 5,1 foiz o‘sgan.

Mamlakatimizdagi qulay investitsiyaviy muhit tufayli xorijiy investitsiyalar hajmi 13,7 milliard dollarga yetdi. Shuningdek, eksportni davlat qo‘llab-quvvatlashi tufayli 2026-yilning birinchi choragida mamlakatimiz eksport salohiyati 5,8 milliard dollarni tashkil qildi.

E’tiborlisi, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasida belgilab berilgan vazifalar natijasida inflyatsiya yillik hisobda birinchi marta 7,1 foizgacha pasaydi. Prezidentimiz erishilgan ko‘rsatkichlar xususida to‘xtalib, jumladan, bunday dedi: “Joriy yil mamlakatimiz nufuzli “Iqtisodiy erkinlik indeksi”da 14 pog‘ona yuqorilab, ilk bor “iqtisodiyoti mo‘tadil erkin” davlatlar qatoridan joy oldi”.

Barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atini ta’minlash borasidagi chora-tadbirlar tufayli erishilgan ijobiy natijalar, ayniqsa, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining yuqori darajada o‘sishiga erishilgani davlat byudjeti daromadining shakllanishiga samarali ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, 2026-yil yanvar – mart oylarida davlat budjeti daromadi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 35 foiz ko‘payib, 103 trillion so‘mga yetdi.



Mahalliy budjetlar mustaqilligini ta’minlash uchun ularning daromad manbaini kengaytirish borasida yuritilayotgan soliq-byudjet siyosati tufayli mahalliy byudjetlarda qo‘shimcha 2 trillion 200 milliard so‘m shakllangan. Shundan 1 trillion 400 milliard so‘mi tuman va shaharlar ixtiyorida qoldi.

2026-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, faoliyat yuritayotgan yuridik shaxs maqomidagi tadbirkorlik subyektlari soni 2025-yilning mos davriga nisbatan 11,8 foizga yoki 44,5 mingtaga oshdi.

Shu bilan birga, Prezidentimiz kimda-kim “Birinchi chorak ko‘rsatkichi yaxshi bo‘ldi, yil yakunigacha ham shunday davom etadi”, deb xotirjamlikka berilsa, xato qilishini alohida qayd etib, 2026-yilni yuqori natijalar bilan yakunlash bo‘yicha vazifalarni ham belgilab berdi.

Jumladan, banklar orqali kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratib, kreditlarni eng samarali loyihalarga yo‘naltirish zarurligi ta’kidlandi. Qayd etilganidek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish hisobiga mahsulot tannarxini pasaytirish, energiya samaradorligini oshirish, investitsiyaviy loyihalarni o‘z vaqtida amalga oshirish va ishlab chiqarish quvvatlaridan unumli foydalanishni talab qiladi.

> **Mamlakatimizda valyuta tushumini ko‘paytirishda eksportbop tovarlarni ishlab chiqarishni kengaytirish bilan bir qatorda sayyohlar oqimini ko‘paytirish muhim o‘rin tutadi.**

Pirovard maqsad xalqimizni rozi qiladigan, arzon va sifatli mahsulotlar bilan ta’minlash va mustahkam oziq-ovqat xavfsizligiga erishishga qaratilgan.

Sharh

**O‘tgan yillarda “iqlim o‘zgarishi” degan so‘z birikmasini ilmiy jurnallardagi maqolalardan ko‘ra ko‘proq siyosiy nutqlarda eshitib qolar edik. Vaholanki, uyimiz yonidagi ariqlar qurib, tog‘ etaklaridagi chashmalar ortga chekinayotgani va Orol dengizi o‘rnida tuz barxanlari qolayotgani orqali u o‘zini sezdirmoqda, tanamizda his qildirmoqda.**

# SUV - GEOSIYOSAT EMAS, TIRIKLIK MANBAYI



**Farida QO‘LDOSHEVA,**
**Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti dotsenti**

Davlatimiz rahbarining yaqinda Qozog‘istonga amaliy tashrifi doirasida Ostonada bo‘lib o‘tgan Mintaqaviy ekologik sammit va Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi yig‘ilishidagi ishtiroki menda olim sifatida katta qiziqish va umid uyg‘otdi.

Markaziy Osiyo yer yuzidagi eng nozik ekotizimlardan biriga ega mintaqa. O‘rta Osiyoning tekislik va tog‘ landshaftlari tarixan suv havzalariga, ya’ni Amudaryo va Sirdaryo irmoqlariga bog‘liq bo‘lgan. Olimlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, Markaziy Osiyoda harorat global o‘rtacha ko‘rsatkichga nisbatan ikki barobar tezroq ko‘tarilmoqda. Mintaqa muzliklarining uchdan bir qismi allaqachon yo‘qolgan. Ayrimlar yaxshi tasavvur qiladiki, O‘zbekistonning suv ta’minoti asosan ana shu muzliklardan boshlanadi. Ular erimay turib, daryolar to‘lmaydi. Daryolar to‘lmasa, yer sug‘orilmaydi. Yer sug‘orilmasa, non bo‘lmaydi.

Sammitda ishtirok etayotgan davlatlar milliy pavilyonlarida o‘z yutuqlari va rejalarini namoyish etdi. O‘zbekiston pavilyoni interfaol va multimedia elementlari bilan jihozlangan tarzda tuzilib, mamlakatning ekologiya va barqaror rivojlanish sohasidagi davlat siyosatini yorqin ifoda etdi. “Chiqindisiz hudud”, “Toza havo”, “Yashil makon”, “Ekomadaniyat”, “Biomeros” va “Ekologik ta’lim” kabi loyihalar keng auditoriyaga taqdim qilindi.

Sammitda muhokama etilgan sakkizta ustuvor yo‘nalish iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, oziq-ovqat xavfsizligi, tabiiy xavf-xatarlarga moslashish, havo ifloslanishini kamaytirish, barqaror resurs menejmenti, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, ekologik va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishda nihoyatda muhim.

Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi (OQXJ) 1993-yilda Markaziy Osiyodagi eng yirik ekologik fojia — Orol dengizining qurishiga birgalikda javob berishga urinish sifatida yaratilgan edi. O‘tgan o‘ttiz yildan ortiq vaqt mobaynida jamg‘arma qisman muvaffaqiyatlarga erishdi, qisman esa samarasiz yo‘nalishlarda resurs sarfladi. Biroq Qozog‘istonning 2023-2026-yillardagi raisligi davrida ishlar tizimlashdi, hujjatlar tayyorlandi, yangi dasturlar shakllantirildi. Endi raislikni O‘zbekiston 2027-yildan boshlab qabul qiladi. Bu O‘zbekiston uchun ulkan mas’uliyat. Nima uchun? Chunki OQXJ faqat maxsus diplomatik tuzilma emas, u suv, yer va havo uchun mintaqaviy davlatlar o‘rtasidagi eng muhim muloqot platformasi.




> **Suv siyosat emas, u taqdir. Orol dengizi bu taqdirning eng achchiq sabog‘i. Agar o‘sha saboqdan o‘rganib, bugun to‘g‘ri qadamlar tashlay olsak, ertangi Markaziy Osiyo yoshlari bizni minnatdorlik bilan eslaydi.**



USHBU MAQOLANI **QORAQALPOQ TILIDA** HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Davlatimiz rahbarining OQXJ yig‘ilishidagi nutqida ikkita jihat meni ta’sirlantirdi. Birinchisi — raqamlar. U mamlakatimizning suv tejash borasida amalga oshirgan ishlarini aniq statistikada aks ettirdi. Ikkinchisi — OQXJni rivojlantirishning “olti yo‘nalish” deya tarixga kirayotgan konsepsiyasi. Unda jamg‘armani modernizatsiyalash, kun tartibini maslahat uchrashuvlari qarorlari bilan uyg‘unlashtirish, loyihalar samaradorligini oshirish, moliyalashtirish mexanizmlarini yaxshilash, boshqa mintaqaviy tuzilmalar bilan hamkorlikni kuchaytirish va insonlarning suvga munosabatini o‘zgartirish maqsadlari belgilangan.

Prezidentimiz nutqida bunday deyildi: “Agar jamiyatning suvga bo‘lgan munosabati o‘zgarmasa, hech qanday muhandislik yechimlari kutilgan samarani bermaydi”. Irrigatsiya kanali betonlansa yaxshi, ammo dehqon o‘sha betonlangan kanaldan ham ortiqcha suv oladigan bo‘lsa, natija cheklangan bo‘ladi. Shuning uchun “Kelajak suvi” mintaqaviy dasturini ishga tushirish — fermerlar va sanoatchilarni suvni tejovchi texnologiyalardan foydalanishga o‘rgatishga qaratilgan bu tashabbus men uchun sof akademik g‘oyani amaliyotga olib tushish degan ma’no kasb etadi.

Mintaqaviy ekologik sammitdagi nutqida Prezidentimiz qator aniq tashabbuslarni ilgari surdi. Birinchisi, “Markaziy Osiyoning toza havosi” davlatlararo konsorsiumini tuzish. Bu havo ifloslanishi faqat bitta davlatning ichki muammosi emasligini anglab yetishdir. Toshkent yoki Bishkek osmonidagi zarrachalar chegara bilmaydi. Davlatlararo konsorsium har bir mamlakatning yakkahol kurashi o‘rniga resurs va texnologiyalarni birlashtirish imkonini beradi. Ikkinchisi, Toshkentdagi Yashil universitet huzuridagi Cho‘llanishga qarshi kurashish markaziga mintaqaviy maqom berish taklifi. Bu biz uchun nihoyatda muhim yangilik. Markaz hozirgacha milliy doirada faoliyat ko‘rsatib kelgan. Unga mintaqaviy maqom berilsa, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston tadqiqotchilari bilan birgalikda ishlay oladi, ma’lumotlar bazasini ulashadi va cho‘llanish, tuz bo‘ronlari, tuproq degradatsiyasi monitoringi bo‘yicha yagona tizim yaratadi. Uchinchi tashabbus — “Markaziy Osiyo yashil savdo yo‘lagi”ni shakllantirish. Ekomahsulotlar uchun imtiyozli bojxona rejimlari va o‘zaro sertifikatlarni tan olish nafaqat ekologiya, balki iqtisodiyot masalasi. Agar “yashil” mahsulot sertifikati mintaqa miqyosida tan olinsa, bu nafaqat chegaradagi byurokratik to‘siqlarni kamaytiradi, balki mahalliy ishlab chiqaruvchilarni ekologik innovatsiyalarga rag‘batlantiradi. To‘rtinchi tashabbus — Markaziy Osiyo iqlim loyihalarining yagona investitsiya portfelini yaratish. Kichik mamlakatlar yakka holda xalqaro moliya bozorlarida kam eshitiladi. Birgalikda tuzilgan portfel esa yirik investorlar diqqatini tortadi, grantlar va arzon kreditlar olish imkonini beradi. Beshinchi taklif — Markaziy Osiyo atrof-muhitidagi o‘zgarishlarning yagona mintaqaviy atlasini yaratish. Har bir mamlakat o‘zining ekologik monitoring tizimiga ega, ammo ular o‘rtasida sinxronizatsiya yo‘q. Atlas shu bo‘shliqni to‘ldiradi.

Ushbu sammitning yana bir ahamiyatli natijasi shundaki, 26-martni Orol dengizi, Amudaryo va Sirdaryo xalqaro kuni deb e’lon qilish to‘g‘risidagi qaror imzolandi. Bunday ramziy sanalar siyosiy ma’no kasb etadi: u dunyo jamoatchiligiga “Bu muammolar biz uchun dolzarb va biz ularni unutmayapmiz” degan signal yuboradi. Bundan tashqari, 2026-2036-yillarni Markaziy Osiyoda suvdan oqilona foydalanish bo‘yicha amaliy harakatlar o‘n yilligi deb e’lon qilish tashabbusi — faqat siyosiy bayonot emas. Agar u amaliy harakatlar rejasi bilan birgalikda ishlab chiqilsa, moliyalashtirish mexanizmlari belgilansa va izchil monitoring yo‘lga qo‘yilsa, haqiqiy transformatsiyaga erishish uchun strategik asos bo‘lishi mumkin.

Suv siyosat emas, u taqdir. Orol dengizi bu taqdirning eng achchiq sabog‘i. Agar o‘sha saboqdan o‘rganib, bugun to‘g‘ri qadamlar tashlay olsak, ertangi Markaziy Osiyo yoshlari bizni minnatdorlik bilan eslaydi.

---

Ayollar tadbirkorligi

# G‘OYADAN REAL IQTISODIY QIYMATGACHA

**Mamlakatimizda xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish va tadbirkorlikka keng jalb etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Joriy yil 6-mart kuni Ko‘ksaroy qarorgohida Prezidentimiz ishtirokida o‘tkazilgan tadbirda mazkur yo‘nalishda aniq vazifalar belgilab berildi.**





Xususan, joriy yilda 1,5 million xotin-qizni daromadli qilish, shundan 400 ming nafarini tadbirkorlikka jalb etish hamda bu maqsadlar uchun 25 trillion so‘mdan ortiq resurs yo‘naltirish rejalashtirilgan.

“O‘zsanoatqurilishbank” tomonidan Buxoro shahrida tashkil etilgan biznes-trening mazkur vazifalar ijrosiga qaratilgan amaliy tashabbuslardan biridir.

Ayollar tadbirkorligi nafaqat shaxsiy daromad manbai, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi muhim omildir. Ular tomonidan tashkil etilgan bizneslar yangi ish o‘rinlari yaratish va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Biroq sohadagi asosiy to‘siqlardan biri moliyaviy resurslar cheklanganidir. Ko‘plab xotin-qizlarda g‘oya va tashabbus mavjud bo‘lsa-da, uni amalga oshirish uchun zarur mablag‘ yoki amaliy tajriba yetishmaydi.

— Ayni paytda ayollar tadbirkorligidagi asosiy muammolar moliyaviy resurslar yetishmasligi va amaliy tajriba kamligidir, — deydi “O‘zsanoatqurilishbank” ATB mutaxassisi Feruza Shermatova. — Shu bois, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, xususan, kredit dasturlari muhim ahamiyatga ega. Bank tomonidan taklif etilayotgan “Hamroh” dasturi doirasida tadbirkor ayollar uchun qulay shartlar yaratilgan. Kredit foiz stavkasi yillik 23 foizni tashkil etib, asosiy vositalar uchun 7 yilgacha, aylanma mablag‘lar uchun esa 18 oygacha ajratiladi. Imtiyozli davr esa biznesni yo‘lga qo‘yishda qo‘shimcha imkoniyat beradi.

Kredit miqdori yaratiladigan ish o‘rinlari soniga bog‘liq holda oshirilib, yirik loyihalar uchun bir necha milliard so‘mgacha yetishi mumkin. Bu esa turli bosqichdagi ayollar tadbirkorligini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi.

Davlat miqyosida ham yangi mexanizmlar joriy etilmoqda. Jumladan, “Daromadli ayol” dasturi doirasida 50 ming xotin-qizning bandligi ta’minlanishi, “Hamroh” dasturi orqali 3 mingta biznes loyihaga 1 trillion so‘m ajratilishi belgilangan. Shuningdek, 166 ming xotin-qiz zamonaviy kasb va tadbirkorlikka, 100 ming nafari esa axborot texnologiyalariga o‘qitilishi rejalashtirilgan.

Tadbir davomida muvaffaqiyatli tadbirkor ayollar o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashdi.

— Tadbirkorlik ayollarga moliyaviy mustaqillik beradi, — deydi O‘zbekiston “Tadbirkorlar va ishbilarmon ayollar” birlashmasi boshqaruvi raisi Mamlakat Sodiqova. — Ular o‘z daromad manbaini yaratadi, iqtisodiy jihatdan erkin bo‘ladi va jamiyatdagi faolligi oshadi. Moliyaviy va huquqiy savodxonlik esa g‘oyalarni ishonch bilan amalga oshirish imkonini beradi.

Buxoroning an’anaviy hunarmandligi ham ayollar tadbirkorligida muhim o‘rin tutadi.

— Zardo‘zlik biz uchun oddiy hunar emas, balki avloddan avlodga o‘tib kelayotgan meros, — deydi Habiba aya Bahranova. — Bugun uni oilamiz bilan davom ettirib, ushbu san’atni asrab-avaylab kelmoqdamiz. Zardo‘zlik sabr, nafosat va yuksak mahoratini talab etadigan san’at bo‘lib, o‘z qadrini yo‘qotmaydi.

Zamonaviy yo‘nalishlarda ham ayollar faol ishtirok etmoqda.

— Buxoro turizm markazi sifatida mehmonxona biznesi uchun katta imkoniyatlarga ega, — deydi “Khanuma Service” oilaviy korxonasi asoschisi Xanuma Tojiyeva. — “Bibikhonim” mehmonxonasini kichik hajmda boshlagan bo‘lsak, bugun uni 300 o‘rindan ortiq quvvatga yetkazdik. Tadbirkorlik ayollar uchun nafaqat daromad manbayi, balki yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Trening doirasida ishtirokchilar o‘z g‘oyalarini aniq biznes rejalarga aylantirish ustida ishladi. Jumladan, bolalar o‘yingohlari, sut mahsulotlarini qayta ishlash, buxgalteriya konsaltingi, xususiy ta’lim muassasalari va psixologik markazlar tashkil etishga oid loyihalar ishlab chiqildi.

Xotin-qizlarning tadbirkorlikdagi faol ishtiroki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning muhim omilidir. Davlat siyosatining izchilligi, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va ayollarning ichki salohiyati uyg‘unlashgan holda ayollar tadbirkorligi bugun real iqtisodiy qiymat yaratayotgan va yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim drayverlaridan biriga aylanmoqda.

**Yunus BO‘RONOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

---

# O‘zi kichkina, TALAFOTI ULKAN

Kun mavzusi

**Bahor mavsumi qishloq xo‘jaligi uchun muhim davr. Bu vaqtda yerga ekin ekilib, oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish ishlari avj pallaga kiradi. Qolaversa, mamlakatimiz bo‘ylab “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida minglab daraxt va o‘simlik ko‘chati ekilmoqda. Ularning o‘zini tutib ketishi va yuqori hosil berishi ayni davrdagi parvarishga ham bog‘liq. Global tus olayotgan ekologik muammolar, ob-havo va tabiat injiqliklari istalgan vaqtda o‘simliklarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.**

Kutilmagan omillar qatorida zararli hasharotlar ham bor. Sababi, bahorning ilk kunlaridan barcha tirik organizmlar kabi hasharotlar ham qishki uyqudan uyg‘onib, ozuqa izlay boshlaydi. Bunday vaqtda ular birinchi galda endigina yerga qadalgan ekinlar, nihol va o‘simliklarga hujum qilib, qishloq xo‘jaligiga jiddiy xavfni yuzaga keltiradi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, yurtimiz iqlim sharoitida ekin uchun eng zararli, to‘da hosil qiluvchi 6-8 turdagi zararli chigirtkalarning tarqalish xavfi mavjud. O‘zbekiston azaldan bu turdagi hasharotlarning tarixiy areali (maydon, makon)dir. Mavsumda esa qo‘shni davlatlar bilan chegaradosh hududlardan mamlakatimizga zararli chigirtkalarning uchib o‘tish xavfi ham ortadi.

Joriy yil mart oyi oxirlarida Qashqadaryo viloyatining ayrim hududlarini zararli chigirtkalar qoplagani haqidagi xabarlar tarqaldi. Ularda cho‘ponlarning adirlarda chigirtkalar to‘dasi paydo bo‘lgani haqida aytib, bu zararkunandalar ekinlarni nobud qilishi mumkinligidan xavotirda ekani aks etgan. Murojaatga asosan, karantin inspektorlari chigirtkalarga qarshi darhol kimyoviy kurash choralarini ko‘rdi. Mutasaddilar holat bo‘yicha munosabat bildirar ekan, barchasi nazoratda ekani, doimiy kuzatuv yo‘lga qo‘yilgani va kimyoviy ishlov berilishini ma’lum qildi.

— Bu borada monitoring ishlari nafaqat mamlakatimiz hududi, balki chegaradosh tumanlarda ham muntazam davom etadi. Aholi orasida tarqalgan videolavhada 1-2 yoshdagi Marokash chigirtkasi aks etgan, — deydi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligining chigirtka va tut parvonasiga qarshi kurashish xizmati rahbari Bahodir Xudoyqulov. — Ular tog‘ yonbag‘irlari, adirlarda paydo bo‘lib, cho‘ponlarning e’tiborini tortgan. Hasharotlar bu davrda ekinzorlar, qir-adirlardagi o‘simliklarga xavf tug‘dirmaydi. Shunday bo‘lsa-da, ayni davrda an’anaviy kimyoviy ishlov beriladi. Sababi, hasharotlarning ekinzorlar, tomorqalarga yetib borishining oldini olish zarur. Aks holda, zararkunanda qishloq xo‘jaligi yeriga katta talafot yetkazishi mumkin.

Joriy yil mart oyining ikkinchi o‘n kunligidan boshlab yurtimizning voha hududida Marokash chigirtkasining birlamchi lichinkalari chiqishi kuzatildi. Shundan so‘ng darhol ushbu turdagi hasharotlarga qarshi kurash boshlab yuborildi. Bu an’anaviy kimyoviy kurash bo‘lib, har yili mamlakatimizning voha hududidan boshlanib, Qoraqalpog‘istondagi tumanlarda yakunlanadi.

Chigirtkalar bir qarashda beozor ko‘rinadi. Har holda bolaligimizda shunday tasavvur qilardik. Ammo o‘shanda ham chigirtkalarning ekinlarni yeb, qishloq xo‘jaligiga zarar keltirishi haqida ko‘p eshitardik. Keyinroq chigirtkalar to‘da-to‘da bo‘lib ekinlarga hujum qilganida katta-katta yer maydonidagi o‘simliklarni bir hamlada yeb bitirishi mumkinligi haqida eshitib, ishonch hosil qilganman.

Bu turdagi zararkunandalarning dunyo oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy zarar yetkazishi ilmiy isbotlangan. Hatto ba’zi davlatlarda chigirtkalar hujumi tufayli mamlakat qishloq xo‘jaligining katta qismi zarar ko‘rib, iqtisodiy muammolar yuzaga kelgani haqida ham bilamiz. Uzoqqa bormaylik: 2020-yil bahorida Yaqin Sharq, Afrika va Osiyodagi 23 davlatda cho‘l chigirtkasi yoppasiga tarqalib, dastlabki davrda ularning mazkur hududlar qishloq xo‘jaligi ekinlariga keltirgan zarari 500 million dollardan oshgan. Ayni holat boshqa davlatlarni ham xavotirga solib, sergaklantirgani, xavf o‘chog‘ini yo‘qotishga global darajada e’tibor qaratilgani yodimizda.

— Zararli hasharotlarga qarshi kurash yurtimizda an’anaviy harakatlardan biri bo‘lib, tegishli texnikalar mavsum oldidan shay holatga keltirib qo‘yiladi, — deydi Bahodir Xudoyqulov. — Joriy yilgi bahor mavsumida mamlakatimiz bo‘ylab 651 ming gektar maydonga kimyoviy ishlov berish rejalashtirilgan. Mahallalar bilan hamkorlikda har bir zararli hasharot o‘chog‘i elektron xaritalarga tushirilgan. Ularga birin-ketin kimyoviy ishlov berilyapti. Bugunga qadar 204 ming gektardan ortiq maydonda monitoring ishlari bajarilgan bo‘lsa, 146 mingdan ziyod gektar yerga kimyoviy ishlov berildi. Fuqarolar istalgan vaqtda qisqa raqamlarga qo‘ng‘iroq qilish orqali zararli hasharotlar haqida xabar berib, kimyoviy kurash xizmatidan foydalanishi mumkin. Amaliyot mutlaqo bepul, kimyoviy ishlov xarajatlari to‘liq davlat tomonidan qoplanadi.

Zararkunandalarga qarshi kurash mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning muhim hamda tarkibiy qismlaridan. Bugun yurtimiz bo‘ylab ekinlar va o‘simliklar parvarishida ayni jihatlarga katta e’tibor qaratilayotgani boisi shunda. Jumladan, seryog‘in kunlar natijasida g‘allada yuzaga keladigan zang kasalligining oldini olish maqsadida fungitsidlar bilan ishlov berish ishlari boshlab yuborilgan.

O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi mutaxassislari hamda O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti olimlari hamkorligida zarur tavsiyalar ishlab chiqilib, “Agroko‘makchi” mobil ilovasiga joylashtirildi. Ilovaning “Bashorat” bo‘limi orqali 48 turdagi zararkunanda va 8 turdagi kasallik bo‘yicha ilmiy asoslangan fenologik prognozlar taqdim etilmoqda. Bu fermer va dehqonlarga zararli organizmlarning rivojlanish bosqichlarini oldindan aniqlab, ularga qarshi samarali choralarni kamida o‘n kun avval qo‘llash imkonini beryapti.



— Yurtimizda 2026-yil hosili uchun jami 953,5 ming gektar maydonda g‘alla parvarish qilinmoqda, — deydi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi boshqarma boshlig‘i Dilshod Anorboyev. — Hozirga qadar 569,1 ming gektar yerga zararkunandalarga qarshi kimyoviy va 225 ming gektar maydonga biologik ishlov berildi. Bir yillik va ko‘p yillik begona o‘tlarga qarshi 800 ming gektardan ortiq maydonda samarali kurash choralari ko‘rildi. Ushbu tizimli va ilmiy asoslangan chora-tadbirlar natijasida g‘alla maydonlarida fitosanitar barqarorlik ta’minlanib, kasallik va zararkunandalar tarqalishining oldi olinmoqda.

**Iroda TOSHMATOVA,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

# MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI KASABA UYUSHMALARI KONFEDERATSIYASI TUZILDI

## BU MUNTAZAM FIKR VA TAJRIBA ALMASHISH UCHUN MUHIM PLATFORMA BO‘LADI

**Toshkent shahrida Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari kengashining umumiy yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari kengashiga a’zo bo‘lgan O‘zbekiston, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Mo‘g‘uliston milliy kasaba uyushmalari markazlari mutasaddilari rahbarligidagi delegatsiyalar, shuningdek, Turkmaniston kasaba uyushmalari milliy markazi delegatsiyasi, Xalqaro mehnat tashkilotining mehnatkashlar faoliyati bo‘yicha byurosi (ACTRAV) Yevropa va Markaziy Osiyo sektori mudiri Sergius Glovaskas, O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi hududiy kengashlari hamda tarmoq kasaba uyushmalari respublika kengashlari raislari, federatsiya apparati mas’ul xodimlari, tasarrufdagi tashkilotlar rahbarlari va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.**

O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi raisi Qudratilla Rafiqov raislik qilgan anjumanda oxirgi 9 yilda Markaziy Osiyoda ulkan ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berayotgani qayd etildi. Mintaqa mamlakatlari o‘rtasida do‘stlik, o‘zaro manfaatlar va ishonch tamoyillariga asoslangan do‘stona qo‘shnichilik munosabatlari jadal rivojlanib bormoqda. Bularning barchasi tarixan qisqa vaqt ichida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining siyosiy irodasi natijasida mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi munosabatlarda ulkan ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilgani hamda hamkorlik aloqalari yangi bosqichga olib chiqilgani natijasidir.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish borasidagi sa’y-harakatlari mintaqa mamlakatlari kasaba uyushmalarining do‘stona aloqalarini yanada mustahkamlash va asosiy vazifalarini amalga oshirishda tajriba almashish ishlarini tamomila yangi bosqichga olib chiqdi. Bunda bandlikni ta’minlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami himoyasi, xotin-qizlar va yoshlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, munosib mehnat sharoitlarini ta’minlash, milliy va xalqaro mehnat standartlarini hayotga tatbiq etish, xodimlar ma’naviyatini yuksaltirish, sifat jihatidan yangilangan ta’limni ilgari surish, kadrlar malakasini oshirish, ixtisoslashgan o‘quv muassasalarida kasaba uyushma xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash vazifalari ustuvorlik kasb etmoqda.

Shu ma’noda, O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tashabbusi bilan tuzilgan Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari kengashi ham turli soha mehnatkashlarining ijtimoiy mehnat, kasbiy, iqtisodiy va boshqa qonuniy huquq hamda manfaatlarini, kasaba uyushmalari faoliyatining huquq va kafolatlarini himoyalash, xalqaro birdamligini mustahkamlashga ko‘maklashish bo‘yicha ishtirokchi mamlakatlar kasaba uyushmalari harakatlarini birlashtirdi.

— Bundan qariyb 5 yil muqaddam Toshkentda O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tashabbusi bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari kengashining ta’sis yig‘ilishi o‘tkazilgan edi, — dedi O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi raisi Qudratilla Rafiqov. — Bugun biz ishonch bilan ta’kidlashimiz mumkinki, kengash o‘zini a’zo mamlakatlarda kasaba uyushmalari harakati va uning rivojlanish istiqbollari holati hamda faoliyati to‘g‘risida muntazam fikr va tajriba almashish uchun muhim platforma vazifasini bajaruvchi hayotiy va nufuzli xalqaro mintaqaviy kasaba uyushma tuzilmasi sifatida ko‘rsata oldi.

> **“ Umumiy yig‘ilish davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari konfederatsiyasi bosh kengashi va uning tarkibi saylandi, konfederatsiyaning ijroiya qo‘mitasi tarkibi tasdiqlandi. Shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari konfederatsiyasining ishchi apparatini tuzish, uning shtatlarini tasdiqlash va moliyalashtirish manbaini belgilash to‘g‘risidagi masala ham ko‘rib chiqilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.**

**Anjuman**





Haqiqatan, kengash rivojining 5 yillik yo‘li kasaba uyushmalari birdamligi samaradorligini va mehnatkashlar huquqlarini himoya qilishda umumiy yondashuvlarga bo‘lgan talabni yaqqol ko‘rsatdi. Kengashning umumiy yig‘ilishlarida mehnat muhofazasi, ijtimoiy himoya, kasaba uyushma ta’limi, yangi axborot texnologiyalarini tatbiq etish va kasaba uyushmalari faoliyatiga taalluqli ko‘plab muhim yo‘nalishlardagi dolzarb masalalar muhokama etilib, tegishli qarorlar qabul qilindi. Ijtimoiy muloqot uchun samarali maydonga aylangan kengash faoliyati Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va Xalqaro kasaba uyushmalari konfederatsiyasi (XKUK) tomonidan ham yuqori baholandi va Markaziy Osiyodagi asosiy hamkor sifatida tan olindi. Bir so‘z bilan aytganda, kengash qisqa muddat ichida shunchaki rasmiy tuzilma emas, balki chinakam jonli va samarali mexanizmga aylandi va bu nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan e’tirof etildi.

Yig‘ilishda 2026-yilda Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari kengashiga raislik qilish vakolati bir ovozdan O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasiga berildi.

Kun tartibiga muvofiq, Markaziy Osiyo mamlakatlarida milliy uch tomonlama ijtimoiy muloqot amaliyoti masalasi ko‘rib chiqildi. Qayd etilganidek, ijtimoiy muloqot munosib mehnat, inklyuziv rivojlanish va ijtimoiy hamjihatlikni ilgari surish va ta’minlash, shuningdek, samarali boshqaruvni rivojlantirishning asosiy vositasidir. Tripartizm esa Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy tamoyili va qadriyati hisoblanadi. Mamlakatlarimizda uch tomonlama maslahatlashuvlar mavzusi bo‘lgan qator umumiy sohalar mavjudki, bular bandlik va mehnat munosabatlari, iqtisodiy siyosat, ish o‘rinlarini yaratish, gender tenglik, ijtimoiy ta’minot va ijtimoiy himoya, mehnat sharoitlari, Xalqaro mehnat me’yorlari va Xalqaro mehnat tashkiloti dasturlari kabi masalalarni qamrab oladi. Mintaqadagi har bir mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy yo‘nalishlarini belgilovchi uch tomonlama jamoa bosh kelishuvlari qabul qilinadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari kengashiga kiruvchi kasaba uyushma markazlari bu borada o‘ziga xos tajribaga ega. Bundan kelib chiqqan holda, yig‘ilishda milliy uch tomonlama muloqot bo‘yicha tajriba almashildi va yaqin istiqboldagi umumiy vazifalar belgilab olindi.

Shundan so‘ng Markaziy Osiyo mamlakatlarida qulay psixosotsial ish sharoitlarini yaratishda kasaba uyushmalarining roli masalasi muhokama etildi. Ta’kidlanganidek, har yili 28-aprel sanasi barcha mamlakatlarda Jahon mehnatni muhofaza qilish kuni sifatida nishonlanadi. Odatda ushbu kun shiori Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan belgilanadi. Bu yil Jahon mehnatni muhofaza qilish kuni “Keling, sog‘lom psixosotsial ish muhitini ta’minlaylik” shiori ostida o‘tkazilmoqda. Ushbu kun doirasidagi tadbirlarda psixosotsial xavflar: ish joyida stress, charchoq, zo‘ravonlik va ta’qiblarga qarshi kurashish; mehnat sharoitlari: ish hajmini optimallashtirish; xavfsizlik madaniyati: ruhiy farovonlik va hissiy xavfsizlik jismoniy himoya bilan teng ravishda qadrlanadigan muhitni yaratish kabi jihatlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jahon mehnatni muhofaza qilish kuni doirasida kasaba uyushmalari ijtimoiy sheriklar bilan hamkorlikda mehnat jamoalarida mavzuga oid viktorinalar va tanlovlar, o‘quv seminarlari va treninglar, ish joylarini o‘rganish va yo‘riqnomalarni yangilash tadbirlarini o‘z ichiga olgan mehnat muhofazasi haftaliklarini o‘tkazmoqda.

Kun tartibidan o‘rin olgan navbatdagi masala Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalarining platforma iqtisodiyotidagi pozitsiyasini shakllantirish mavzusini qamrab oldi. Ta’kidlanganidek, 2026-yilning iyun oyida Xalqaro mehnat konferensiyasining 114-sessiyasi bo‘lib o‘tadi. Unda platforma iqtisodiyotida munosib mehnat, ish joyida gender tenglik, shuningdek, ijtimoiy muloqot va uch tomonlama hamkorlikka taalluqli masalalar muhokama etilishi ko‘zda tutilgan. Sessiyada platformali bandlik bo‘yicha Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyasi yoki tavsiyasi qabul qilinishi kutilmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari kengashi umumiy yig‘ilishida platformali bandlik sohasiga oid barcha masalalar, jumladan, mavjud xavflar batafsil muhokama etildi. Bu sohada Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari kengashi bayonoti ishlab chiqilgani, keyinchalik ushbu bayonot Xalqaro mehnat tashkiloti va Xalqaro kasaba uyushmalari konfederatsiyasiga rasman taqdim etilishi bildirildi.

Navbatdagi muhokamalar davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari kengashini Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari konfederatsiyasiga aylantirish va ustavni tasdiqlash masalasi ko‘rib chiqildi.

Qayd etilganidek, ilgariroq Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari kengashini doimiy apparatga ega tuzilmaga aylantirishga kelishib olingan edi. Bugun kengashni doimiy qarorgohga ega xalqaro tuzilma sifatida tashkil etish ayni muddaodir. Kengashni konfederatsiyaga aylantirish tashabbusi ishtirokchilar tomonidan to‘la qo‘llab-quvvatlandi. Yangi konfederatsiya ustavini tasdiqlash to‘g‘risidagi qaror bir ovozdan qabul qilindi. Bu orqali faqat tuzilma nomi o‘zgartirilmadi, balki mintaqa kasaba uyushmalari harakati tarixining yangi sahifasi ochildi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shundan so‘ng “Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari konfederatsiyasi bosh kotibini saylash to‘g‘risida”gi masala ko‘rib chiqildi.

So‘zga chiqqanlar Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari konfederatsiyasi bosh kotibi etib O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi raisi Qudratilla Rafiqovni saylash taklifini ilgari surdi. Taklif bir ovozdan qabul qilindi.

Umumiy yig‘ilish davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari konfederatsiyasi bosh kengashi va uning tarkibi saylandi, konfederatsiyaning ijroiya qo‘mitasi tarkibi tasdiqlandi. Shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari konfederatsiyasining ishchi apparatini tuzish, uning shtatlarini tasdiqlash va moliyalashtirish manbaini belgilash to‘g‘risidagi masala ham ko‘rib chiqilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

* * *

Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari konfederatsiyasining umumiy yig‘ilishi ishtirokchilari O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida ham bo‘ldi.

Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi nafaqat o‘tmish haqida hikoya qiladigan, balki tarix, bugun va kelajakni bog‘laydigan, taraqqiyotimizning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradigan aql-tafakkur markazidir.

Oltin asr va yangi O‘zbekiston o‘rtasidagi ko‘prik bo‘lgan ushbu maskanda mehmonlar boy ma’naviy va ilmiy merosni mamlakatning zamonaviy intilishlari bilan bog‘laydigan jarayonlar, xususan, markazdagi Shon-sharaf zali, Qur’oni karim zali, Islomdan avvalgi davr sivilizatsiyalari bo‘limi bo‘lgan So‘g‘d zali, Bag‘rikenglik maydoni bilan tanishdi.

O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan yaratilgan raqamli platformada esa yuzdan ortiq buyuk mutafakkir va olimlarning ekranlarda “jonlanib”, o‘z g‘oyalari va kashfiyotlari haqida so‘zlagani mehmonlarda betakror taassurot qoldirdi.

**Muhabbat O‘RMONBEKOVA,
O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Matbuot xizmati rahbari**

# O‘ZBEKISTON – GERMANIYA FORUMI

## yoshlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish hamda global mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi

**Bugungi globallashuv sharoitida inson kapitali har qanday davlat taraqqiyotining hal qiluvchi omiliga aylanib bormoqda. Ayniqsa, kasbiy ta’lim tizimining sifat jihatidan yangilanishi, uni xalqaro standartlarga moslashtirish va mehnat bozori bilan uzviy bog‘lash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, yaqinda Germaniyada ilk bor o‘tkazilgan O‘zbekiston – Germaniya kasbiy ta’lim forumi ikki davlat o‘rtasidagi ta’lim, mehnat bozori va xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi.**



**Azimjon HUSANOV,
Kasbiy ta’lim agentligi direktori**

Mazkur forum Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) tomonidan amalga oshirilayotgan “TexVET II” va “Skilled Labour Management Uzbekistan” loyihalari doirasida tashkil etildi. Ushbu tashabbus O‘zbekiston kasbiy ta’lim tizimini tubdan modernizatsiyalash, uni ilg‘or xorijiy tajriba bilan uyg‘unlashtirish hamda yoshlarni xalqaro mehnat bozoriga tayyorlashga qaratilgan kompleks islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi.

Tadbir doirasida bo‘lib o‘tgan yalpi majlislar va panel muhokamalarda Germaniya vakillari tomonidan O‘zbekistondagi islohotlarga yuqori baho berildi. Ayniqsa, kasbiy ta’lim tizimini modernizatsiyalash, dual ta’limni rivojlantirish va yoshlarni ish bilan ta’minlash borasidagi sa’y-harakatlar alohida e’tirof etildi.

Forumda Germaniyaning vazirlik va idoralari, Savdo-sanoat palatalari, ish beruvchi yirik kompaniyalar, kasbiy ta’lim muassasalari, xalqaro ekspertlar hamda nemis tilini o‘qitish tashkilotlaridan 200 nafardan ortiq vakil ishtirok etdi. Tadbirning yalpi yig‘ilishida Turingiya Federal yeri ijtimoiy masalalar vaziri K.Shenk, Germaniya Federal iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot vazirligi vakili K.Probst, “TELC” xalqaro kompaniyasi direktori Y.Keicher kabi nufuzli mutaxassislar so‘zga chiqib, O‘zbekistonda kasbiy ta’lim va migratsiya sohasidagi islohotlarni yuqori baholadi.

Xususan, K.Shenk o‘z nutqida texnikumlarda nemis standartlarini joriy etish bitiruvchilarga nafaqat Germaniya mehnat bozorida yuqori daromadli ish topish, balki O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun xalqaro darajada tan olingan yuqori malakali kadrlar tayyorlash imkonini berishini alohida ta’kidladi.

O‘zbekistonda kasbiy ta’lim tizimini tubdan modernizatsiyalashga qaratilgan yondashuvlar, jumladan, texnikum o‘quvchilarini ish bilan ta’minlayotgan korxonalar uchun 1 foizli soliq imtiyozi joriy etilgani, 2026-yildan boshlab dual ta’lim tizimi asosida tahsil olayotgan o‘quvchilarga stipendiya to‘lash amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi Germaniya delegatsiyasi tomonidan alohida e’tirof etildi. O‘quvchilarning akademik natijalariga qarab stipendiyalar tizimi joriy qilinishi, hududlarda ilg‘or kasbiy mahorat texnikumlari tashkil etilishi hamda ushbu muassasalarda faoliyat yuritayotgan pedagoglarning ish haqi ikki baravar oshirilayotgani Germaniya tomonida katta taassurot qoldirdi. Mazkur chora-tadbirlar nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki mehnat bozoriga yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlarni yetkazib berishga xizmat qiluvchi puxta o‘ylangan tizimli islohotlar sifatida baholandi.

### Raqamlarda ifodalangan ishonch

Forum yakuni bo‘yicha jami 47 ta hamkorlik shartnomasi imzolandi, shundan 14 tasi respublika darajasida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, uchrashuvlar doirasida Germaniya ta’lim dasturlarini joriy etish, pedagoglar malakasini oshirish, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, nemis tilini o‘qitish va migratsiya masalalariga oid 30 ta muhim hujjat imzolandi.

**Hamkorlik**



Erishilgan kelishuvlar asosida yaqin yillarda qator aniq natijalarga erishish rejalashtirilgan. Jumladan, 39 ta texnikumda har yili kamida 2280 nafar yosh Germaniya ta’lim dasturlari asosida o‘qitiladi, energetika, sanoat va qurilish yo‘nalishlarida 14 ta zamonaviy ustaxona tashkil etiladi. Shuningdek, 160 pedagog Germaniyada malaka oshiradi va stajirovkadan o‘tadi, kamida 40 nafar nemis mutaxassisi esa bevosita ta’lim jarayoniga jalb etiladi.

Xalqaro mehnat bozoriga chiqish imkoniyatlari ham kengaymoqda. Xususan, 2026-2027-yillarda 1,5 ming fuqaro Germaniyada qishloq xo‘jaligi, qurilish, sanoat, xizmat ko‘rsatish, haydovchilik va gastronomiya sohalarida ish bilan ta’minlanadi. Bundan tashqari, joriy yilning o‘zida 700 hamshira va parvarishlovchi Germaniya klinikalarida ish boshlashi ko‘zda tutilgan.

Toshkent va Samarqand shaharlarida hamshiralik yo‘nalishidagi o‘quvchilar uchun bepul nemis tili kurslari yo‘lga qo‘yiladi, texnikum o‘quvchilari Germaniya korxonalarida qisqa muddatli amaliyot o‘tash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shuningdek, “TELC” bilan hamkorlikda xalqaro sertifikatlash tizimi rivojlantirilib, har yili kamida 100 nafar nemis tili o‘qituvchisi B2/C1 darajadagi imtihonlarga tayyorlanadi. “Bildung und Beruf”, “SBH West”, “Avestos”, “Prosica” kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda amaliyot, malaka oshirish va zamonaviy onlayn ta’lim platformalarini joriy etish bo‘yicha muhim loyihalar amalga oshiriladi.

Forum davomida Germaniyada tahsil olayotgan va faoliyat yuritayotgan 30 dan ortiq o‘zbekistonlik bilan ochiq muloqot o‘tkazildi. Ular tomonidan nemis tilini o‘qitishni kengaytirish, qisqa muddatli kasbiy kurslarni ko‘paytirish hamda xorijdagi talabalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish bo‘yicha qator takliflar bildirildi.

### Muvaffaqiyat formulasi

Hozir kasbiy ta’lim tizimida shakllanayotgan yangi modelning markazida dual ta’lim turibdi. Bu yondashuv ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi an’anaviy uzilishni bartaraf etib, ularni yagona tizimga birlashtirayotgan muhim mexanizmga aylanmoqda. Bugungi kunda 510 dan ortiq texnikum, 14 mingdan ziyod korxona va tashkilot hamda 67 mingdan ortiq o‘quvchi “ustoz-shogird” tamoyili asosida faol hamkorlik qilayotgani dual ta’limning amalda qanday keng qamrovli tizimga aylanganini ko‘rsatadi. Eng e’tiborlisi, ishlab chiqarishning o‘zidan jalb etilgan 17 mingdan ortiq malakali mutaxassisning ustoz sifatida ishtirok etayotgani ta’lim jarayonini real mehnat muhiti bilan bevosita bog‘lamoqda.

Bu jarayon kasbiy ta’limning mohiyatini tubdan o‘zgartirdi. Endi o‘quvchi faqat auditoriyada o‘tirib bilim olmaydi, balki ishlab chiqarish jarayonining to‘laqonli ishtirokchisiga aylanadi. Bu diplom emas, aksincha, real ko‘nikma uchun ta’lim tamoyiliga asoslanmoqda. Natijada bitiruvchi mehnat bozoriga moslashish bosqichi uchun ortiqcha vaqt sarflamasdan, tayyor mutaxassis sifatida kirib keladi. Dual ta’limning yana bir muhim jihati — iqtisodiyot bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri integratsiyalashganidir. Hududlarda “investor — tarmoq — texnikum” zanjiri yo‘lga qo‘yilgani va 4 mingdan ortiq yirik ish beruvchining texnikumlarga biriktirilgani kadrlar tayyorlashni butunlay yangi bosqichga olib chiqdi. Endilikda qaysi hududda qaysi mutaxassisga ehtiyoj borligi aniq prognoz qilinmoqda, kadrlar tayyorlash esa aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib rejalashtirilmoqda. Bu esa ortiqcha yoki talab qilinmaydigan mutaxassislar tayyorlashning oldini olib, bitiruvchilarning bandligini ta’minlashda hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Bundan tashqari, ushbu model korxonalar uchun ham manfaatli hisoblanadi. Ular o‘zlariga zarur bo‘lgan kadrlarni tayyorlash jarayonida bevosita ishtirok etadi, o‘quvchi esa o‘qish jarayonidayoq kelajakdagi ish joyiga moslashadi.

Shu bilan birga, dual ta’limda o‘qiyotgan yoki tugatganiga 3 yildan ko‘p bo‘lmagan mutaxassisni ishga olgan tadbirkorlar uchun qo‘shimcha reyting ballari beriladi hamda daromad solig‘ini to‘lashda imtiyozlar davri uzaytirilishi nazarda tutilgan. Natijada “ta’lim — ishlab chiqarish — bandlik” zanjiri mustahkamlanib, iqtisodiyotning real sektori bilan ta’lim tizimi o‘rtasida uzviy bog‘liqlik yuzaga keladi. Shu tariqa dual ta’lim kasbiy ta’lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqayotgan, uni zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirayotgan va eng muhimi, yoshlarni hayotga, aniq kasbga va barqaror bandlikka tayyorlayotgan strategik ustunga aylanmoqda.

Mutaxassislar fikricha, ushbu forum doirasida erishilgan kelishuvlar O‘zbekiston kasbiy ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, yoshlarning zamonaviy bilim va amaliy ko‘nikmalarini oshirish hamda global mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur forum nafaqat ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamladi, balki O‘zbekiston yoshlari uchun xalqaro ta’lim va mehnat bozoriga keng yo‘l ochib berdi. Bu esa mamlakatda zamonaviy, raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqishda muhim qadamdir. Ushbu hamkorlik modeli uzoq muddatli va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Zero, bugungi yoshlar ertangi taraqqiyot poydevoridir. Ularning bilimli, malakali va raqobatbardosh bo‘lib yetishishi esa davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Shu ma’noda, Berlin forumida boshlangan yangi bosqich O‘zbekiston kasbiy ta’lim tizimini mutlaqo yangi darajaga olib chiqadigan muhim burilish nuqtasi sifatida tarixda qoladi.

**Poytaxtdagi 26 ta ko‘cha bugun sayyohlar va mahalliy aholi bilan gavjum. Ular qisqa muddatda zamonaviy shahar madaniyatining ajralmas qismi sifatida shakllandi.**

YANGI O‘ZBEKISTON
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

# SOKIN VA FAYZLI GO‘SHALAR

## YOKI TURIZM KO‘CHALARI HAMDA QISHLOQLARI HAQIDA

### Sayyohlik manzillari

**Yaqinda davlatimiz rahbari poytaxtimizning Mirzo Ulug‘bek tumaniga tashrif buyurib, tuman hokimligi faoliyati, joylardagi bunyodkorlik va infratuzilmani rivojlantirish ishlari bilan tanishish chog‘ida O‘zbekiston ovozi turizm ko‘chasida ham bo‘lgan edi. Bu kabi ko‘chalarning aholi turmush farovonligi va iqtisodiyotimizdagi o‘rni alohida ahamiyatga ega.**

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!








> **Turizm qishloqlarida oilaviy tadbirkorlik, xizmat ko‘rsatish rivojlanib, hozir oilaviy mehmon uylari 1480, xostellar 45, o‘tov uylar 47 hamda boshqa turdagi joylashtiruv vositalari soni 128 tani tashkil qiladi.**

Joriy yil boshidan buyon mamlakatimizga 3 millionga yaqin sayyoh kelib, turizm xizmatlari eksporti 48 foiz o‘sgan. Bu yil 12 million turistga xizmat ko‘rsatish maqsad qilingan. Mamlakatimizdagi turizm ko‘chalari mehmonlar xizmatida. Ushbu ko‘chalarda hunarmandchilik mahsulotlari savdosi, milliy esdalik buyumlar ishlab chiqarish, an’anaviy kasb-hunar ko‘rgazmasi tashkil etilgan. Eng ko‘p turizm ko‘chasi Toshkent shahrida. Poytaxtdagi 26 ta ko‘cha bugun sayyohlar va mahalliy aholi bilan gavjum. Ular qisqa muddatda zamonaviy shahar madaniyatining ajralmas qismi sifatida shakllandi.

Jumladan, Olmazor tumanidagi Zarqaynar ko‘chasi sayyohlarning sevimli maskaniga aylanib bormoqda. Sharqona hayot, mahalla madaniyati, tabiiy muhit kishini o‘ziga jalb etadi. Loysuvoq uylar, naqshinkor darvozalar, baland ayvonlar, yog‘och ustunlarga o‘yib ishlangan naqshlar, hunarmandlar mehnati mahsuli bo‘lgan, nozik did bilan yaratilgan namunalar o‘tmish ruhi, iliq hissiyotni taqdim qiladi.

Gulbozor mahallasi Toshkentning tarixiy qismida — Chorsu bozori yonida joylashgan. Bu yerga yilning barcha mavsumida xorijlik turistlar ko‘p keladi. Shu bois, hudud turizm xizmatlariga ixtisoslashtirildi. Ko‘cha va uylarda poytaxtning qadimgi ko‘rinishini saqlab qolgan holda qo‘shimcha sharoitlar yaratildi. Ko‘cha boshidagi tarixiy darvoza qayta tiklandi. O‘ymakor ustunli katta ayvon, unga yaqin joyda hovuz barpo etildi. Kashtachilik va hunarmandchilik ustaxonalari, novvoyxona, milliy oshxonalar, zargarlik do‘konlari sayyohlarga xalqimizning qadriyatlari, urf-odatlari va tarixi haqida hikoya qiladi.

Kecha-yu kunduz muttasil ishlayotgan zamonaviy gastronomik va sayyohlik ko‘chalari bugun shiddat bilan rivojlanyapti. Ular qulayligi, dizayni va ko‘ngilochar muhiti bilan ajralib turadi. Misol uchun, poytaxtimiz markazidagi Bunyodkor ko‘chasini ko‘pchilik yaxshi biladi. Shayxontohur va Chilonzor tumanlarini bog‘lab turuvchi mazkur ko‘cha doim odamlar bilan gavjum. Ko‘chaning 1,5 kilometr qismi xizmat ko‘rsatish va gastroturizm ko‘chasiga aylantirildi. Bu yerdagi 90 ta tadbirkorlik subyektida odamlarga tunu kun xizmat ko‘rsatiladi. Gastroturizm ko‘chasida aholining sayr qilishi, ovqatlanishi, dam olishi uchun barcha qulaylik bor. O‘zgacha ko‘rinishdagi landshaft dizayni, favvoralar ko‘chaga tarovat bag‘ishlaydi.

Bundan tashqari, Mirzo Ulug‘bek tumanidagi O‘zbekiston ovozi, Mirobod tumanidagi Taras Shevchenko ko‘chalarida turistlar uchun qulay va shinam muhit yaratildi.



Avtomobil yo‘li uchun qoplama, muntazam ishlovchi kuzatuv kameralari, dekorativ favvoralar, ayvonlar, yoritish tizimlari, avtoturargoh, qahvaxona-restoran, zamonaviy o‘rindiqlar shahar jozibasini oshirmoqda.

Bunday shinam ko‘chalar poytaxtning har bir tumanida barpo etilayotir.

— Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida 6 tadan, Buxoro va Samarqand viloyatlarida 4 tadan, Xorazm va Jizzax viloyatlarida 3 tadan, Qashqadaryo viloyatida 2 ta turizm ko‘chasi tashkil etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Sirdaryo, Navoiy, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida ham turizm ko‘chalari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Jarayon mamlakatning barcha hududini qamrab olgan, — deydi Turizm qo‘mitasi raisining axborot siyosati bo‘yicha maslahatchisi Shahboz Saidxonov.

Turizm ko‘chalarini tunu kun faoliyat yuritadigan zamonaviy maskanga aylantirishga alohida e’tibor qaratilayotir. Bu borada Andijon shahridagi Amir Temur ko‘chasini 24/7 formatida ishlaydigan turizm ko‘chasiga aylantirish rejalashtirilgan. Samarqand shahrida esa qator ko‘chalarni zamonaviy xiyobon tipidagi madaniy va ko‘ngilochar hududlarga aylantirish, ayrimlarini esa tunu kun ishlaydigan formatga o‘tkazish ko‘zda tutilyapti.

Joylardagi yana bir muhim tashabbus turizm ko‘chalarini tematik va tarixiy ruhda shakllantirishdir. Masalan, Qo‘qon shahridagi ba’zi mahallalar hududida qadimgi shahar qiyofasini aks ettiruvchi turizm ko‘chalarini ochish ko‘zda tutilyapti. Bu sayyohlar oqimini oshirish barobarida tarix va milliy madaniyatni yanada keng targ‘ib etish imkonini beradi. Farg‘ona shahrida ham yangi zamonaviy turizm ko‘chalarini tashkil etish ishlari davom ettirilmoqda. Misol uchun, Farg‘ona shahridagi Kashtanzor ko‘chasi bu yil turizm ko‘chasiga aylantiriladi.

Sayyohlik ko‘chalarini tashkil etishda xalqaro tajriba muhim. Chunki tayyor, sinovdan o‘tgan yechimlar orqali vaqt va resurslarni tejash, sayyohlar ehtiyojiga mos muhit yaratish mumkin. Dizayn va infratuzilma, estetik jihatdan shinamlikni ta’minlashda xalqaro tajriba, albatta, kerak. Bu jarayonda mahalliy madaniyat, iqlim va an’analar hisobga olinmoqda.

— Kogon shahrida Jahon banki ko‘magida madaniy meros obyektlari negizida turli xalqlarning milliy oshxonalarini ochish bo‘yicha master-reja ishlab chiqilmoqda, — deydi Shahboz Saidxonov. — Xususan, italyan, olmon, uyg‘ur, xitoy va yapon oshxonalarini ochish ko‘zda tutilyapti. Mazkur loyiha gastronomik turizmni rivojlantirish hamda madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Turizm ko‘chalarining samarali faoliyat yuritishida madaniy-ko‘ngilochar tadbirlarning o‘rni beqiyos. Bugun sayyohlik obyektlarida har yili 100 dan ortiq turli tadbirlar o‘tkazilayotir. Xususan, Xiva shahridagi tarixiy majmualarda teatrlashtirilgan sahna ko‘rinishlari, Samarqandda yirik festivallar, Buxoroda xalqaro madaniy tadbirlar uyushtirilmoqda.

Transport xizmati turistik sayohatning muhim qismi. Manzilga xavfsiz yetib borish, sayohatni ko‘ngildagidek o‘tkazishda transport katta ahamiyatga ega. Shu bois, yirik shaharlarda sayyohlik yo‘nalishlari uchun maxsus avtobus qatnovlari yo‘lga qo‘yildi. Bu turistik obyektlar o‘rtasida uzluksiz harakatni ta’minlamoqda. Hududlarda tashkil etilgan maxsus marshrutlar orqali tarixiy va madaniy maskanlarni qisqa muddatda ko‘rish mumkin bo‘lmoqda.

Davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlov mexanizmlarining joriy etilishi sohaning jadal rivojlanishiga xizmat qilayotir. Prezidentimizning 2025-yil 27-fevraldagi “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, ko‘plab loyihalarni amalga oshirish uchun katta hajmdagi mablag‘ ajratilishi belgilangan. Ayniqsa, tunu kun faoliyat yuritadigan turizm va gastronomik ko‘chalarni rivojlantirish uchun davlat byudjetidan mablag‘ ajratilishi soha istiqbolida muhim omil bo‘layotir. Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay sharoit yaratish maqsadida yangi normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Bu esa turizm ko‘chalarida faoliyat yuritayotgan biznes vakillarining imkoniyatlarini kengaytirib, xizmatlar sifatini yanada oshirishga zamin yaratadi.

Parkent tumanidagi Kumushkon turistik qishlog‘ini bilmagan odam bo‘lmasa kerak. Tabiat va inson qo‘li bilan barpo etilgan go‘zallik qishloqqa o‘zgacha fayz bag‘ishlab turadi. Tabiati, toza havosi, aholining yashash tarzi, oilaviy mehmon uylari bilan sayyohlarni o‘ziga jalb qilayotgan bu maskanda turizm qishlog‘i maqomi uchun zarur barcha infratuzilma yaratilgan. Bunday qishloqlar nafaqat dam olish joyi, balki insonga tinchlik, ilhom va tabiat bilan yaqinlik tuyg‘usini baxsh etuvchi maskandir.

Turizm qishloqlarida oilaviy tadbirkorlik, xizmat ko‘rsatish rivojlanib, hozir oilaviy mehmon uylari 1480, xostellar 45, o‘tov uylar 47 hamda boshqa turdagi joylashtiruv vositalari soni 128 tani tashkil qiladi.

Sayyohlarga har tomonlama qulaylik yaratish hamda ular uchun xizmat ko‘rsatishga alohida e’tibor qaratilib, har bir qishloqda ularga kamida 5 ta sifatli xizmat taqdim etilmoqda. Misol uchun, Pop tumani Chodak turizm qishlog‘ida 301 ta, Yangiqo‘rg‘on tumani Nanay turizm qishlog‘ida 196 ta hamda Samarqand shahrida joylashgan Bog‘ibaland turizm mahallasida 32 ta oilaviy mehmon uyi ochilgan.

Turistik ko‘rgazma obyektlari har bir qishloqda mavjud. Hunarmandlar savdo rastalari, hunarmandchilik markazlari, uy-muzeylar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan hamda mahalliy hunarmandlar ishlab chiqarayotgan esdalik sovg‘alar sotiladigan shoxobchalar tashkil etilgan. Turizm qishloqlarida va mahallalarida 2800 dan ziyod ish o‘rni yaratilgan.

O‘zbekiston turizmni rivojlantirishda yangi bosqichga qadam qo‘yib, xalqaro maydonda jozibador sayyohlik yo‘nalish sifatidagi mavqeini tobora mustahkamlab boryapti. Buni turizm qishloqlari va mahallalari rivoji misolida ham ko‘rish mumkin.

**Risolat MADIYEVA,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

# “BOYSUN BAHORI” YANA DUNYO NIGOHIDA

### Taraddud

## QUROQ KO‘RPA HAYRAT ULASHISHGA TAYYOR

**Minglab qalblarni rom etib kelayotgan “Boysun bahori” xalqaro folklor festivali joriy yil 13-mavsumini yuqori saviyada qarshi olmoqda. Ushbu festival nafaqat Surxondaryo viloyatining, balki butun O‘zbekistonning boy madaniy merosi, qadimiy an’analari va o‘ziga xos milliy qadriyatlarini dunyoga namoyon etuvchi yirik madaniy tadbirga aylanib ulgurdi.**



Surxondaryoning betakror va jozibali tabiati bag‘rida o‘tkaziladigan bu yilgi festival haqiqiy ma’naviyat, san’at va qadriyatlar bayramiga aylanishi shubhasiz. Tog‘lar qo‘ynidagi Boysunning musaffo havosi, qadimiy ohanglaru milliy kuy-qo‘shiqlari, rang-barang liboslari va samimiy insonlari mehmonlarga unutilmas taassurot bag‘ishlaydi.

Bu yilgi festival mazmuni yanada boyitilib, tashkiliy ishlarning har bir jihatiga yangicha yondashuv asosida tayyorgarlik ko‘rildi. Hududlar bo‘yicha tashkil etilayotgan milliy qo‘rg‘onlar festivalning eng diqqatga sazovor jihatlaridan biriga aylanishi shubhasiz. Bu qo‘rg‘onlarda har bir viloyat va tuman boy tarixi, urf-odatlari, milliy taomlari hamda hunarmandchilik an’analarini namoyish etadi. Natijada mehmonlar O‘zbekistonning turli hududlari bo‘ylab sayohat qilgandek hisni tuyadi.

Festivalda milliy liboslar va ularning zamonaviy talqinlari keng namoyish etiladi. Atlas va adrasdan tikilgan nafis ko‘ylaklar, zardo‘zlik san’ati bilan bezatilgan choponlar, milliy do‘ppilar, zarhal kamzullar hamda qo‘lda ishlangan taqinchoqlar festivalga o‘zgacha ko‘rk bag‘ishlaydi. Shuningdek, yosh dizaynerlarning zamonaviy uslubdagi milliy liboslar ko‘rgazmasi orqali merosimizning bugungi talqini keng yoritiladi.

Tadbir doirasida folklor jamoalarining chiqishlari, baxshichilik va dostonchilik kechalari, milliy sport musobaqalari, dorbozlar tomoshalari, askiya va laparlar, turli xalq o‘yinlari hamda katta konsert dasturlari o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Har bir chiqish orqali tomoshabinlarga xalq og‘zaki ijodining bebaho namunalari yetkazib beriladi.

Maydonga kirish qismida barpo etilayotgan milliy tematik yo‘laklar festivalning alohida diqqatga sazovor qismi. Uzunligi 180 metrni tashkil etuvchi ushbu yo‘laklarda sakkiz xil milliy yo‘nalish o‘z ifodasini topib, ularda amaliy san’at namunalari, hunarmandchilik buyumlari va aksessuarlar keng namoyish etiladi.

Festivalning eng hayratlanarli yangiliklaridan biri boysunlik mohir hunarmandlar tayyorlagan ulkan quroq ko‘rpadir. Uzunligi 33, eni 5 metrdan ziyod ushbu noyob san’at asarini olti oyda Nazokat Sobirova boshchiligidagi 12 hunarmand tayyorladi. Mato parchalari asosida tikilgan bu ko‘rpa o‘zida o‘zbek milliy quroqchilik an’analarining barcha uslubini mujassam etgan.

Mazkur quroq ko‘rpa shunchaki hunarmandchilik namunasi emas, balki xalqimizning birdamligi, sabr-toqati, nozik didi va ma’naviy boyligi timsolidir. O‘zida ranglar uyg‘unligi, naqshlar jilosi, mehnat hamda mehrni mujassam etgan bu asar har bir tomoshabin qalbida faxr uyg‘otishi tayin. O‘tgan festivalda taqdim etilgan 22 metrli ko‘rpaga nisbatan bu yilgi loyiha yanada ulkan va mukammal bo‘lib, yangi rekord darajasiga chiqishi kutilmoqda.

Shuningdek, tadbir davomida milliy taomlar festivali ham tashkil etilib, mehmonlarga o‘zbek oshxonasining betakror ta’mlari taqdim etiladi. Tandirkabob, sumalak, osh, sho‘rva hamda turli milliy shirinliklar mehmonlarga xalqimizning o‘ziga xos mehmondo‘stligini yanada yaqqol his ettiradi.

Bu yilgi “Boysun bahori” festivali shunchaki tomosha emas, balki chinakam ma’naviy sayohatga aylanadi. Bu maskanda har bir mehmon o‘zbek xalqining boy madaniyati, qadriyatlari hamda an’analarini yaqindan his etish imkoniga ega bo‘ladi.

**Nargiza RAHMATULLAYEVA,**
**Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Surxondaryo viloyati bo‘limi rahbari**

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-446.
30821 nusxada bosildi.
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug‘murodov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05